

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**XALOVA MAFTUNA ABDUSALAMOVNA**

**HOZIRGI O‘ZBEK AYOLLAR SHE’RIYATIDA  
QALB TASVIRI VA TALQINI  
(H.Xudoyberdiyeva, H.Ahmedova, Z.Mirzo ijodi misolida)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)**

**Content of Dessertation Abstract of Doctor of Philological Science (DSc)**

**Xalova Maftuna Abdusalamovna**

Hozirgi o‘zbek ayollar she’riyatida qalb tasviri va talqini (H.Xudoyberdiyeva, H.Ahmedova, Z.Mirzo ijodi misolida)..... 3

**Халова Мафтуна Абдусаламовна**

Образ и интерпретация души в современной узбекской женской поэзии (на примере творчества Х.Худойбердиевой, Х.Ахмедовой, З.Мирзо)..... 35

**Khalova Maftuna Abdusalamovna**

Image and interpretation of the soul in modern uzbek women’s poetry (on the example of the work of Kh.Khudoiberdieva, Kh.Akhmedova, Z.Mirzo) .. 71

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 77

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**XALOVA MAFTUNA ABDUSALAMOVNA**

**HOZIRGI O‘ZBEK AYOLLAR SHE’RIYATIDA  
QALB TASVIRI VA TALQINI  
(H.Xudoyberdiyeva, H.Ahmedova, Z.Mirzo ijodi misolida)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Doktorlik dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida №B 2021.1.DSc/Fil290 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** **Umurov Hotam Ikromovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **To'rayev Damin To'rayevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Quvvatova Dilrabo Xabibovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Afoqova Nodira Maxmudovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «23» aprel soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15 Tel.: (8366) 239-11-40, 139-18-92; faks:(8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz Samarqand davlat universiteti, Bosh o'quv binosi, 105-xona.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (20 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (0366) 239-13-87; faks: (0366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «9» aprel kuni tarqatildi.  
(2024-yil «9» aprel dagi 9 -raqamli reyestr bayonnomasi).



**M.Q.Muhiddinov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

**D.B.Xursanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, filologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Sh.A.Hasanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon badiiy soʻz sanʼatidagi feminizatsiya hodisasi adabiyotshunoslikka ham oʻz taʼsirini oʻtkazib, “ayollar adabiyoti”, “ayollar adabiyotshunosligi” tushunchalarini yuzaga chiqarmoqda hamda milliy adabiyotlarda ayol psixologiyasi, ijtimoiy muhitlar kesimida ayol ijodkorlar uslubini aniqlashga qiziqish ortib bormoqda. Buning natijasida, folklorshunoslikda, jahon va mumtoz adabiyotda ayol ijodkorligi fenomeni, ularning qalb kechinmalarini turistik adabiy jarayon sifatida oʻrganish, ayollar ijodkorligi masalasini alohida yoʻnalish sifatida koʻrsatish bilan birga janr va uslublar rang-barangligi masalalarini yangicha yondashuv va tamoyillar asosida rivojlanib kelayotganligini qiyosiy tipologik nuqtayi nazardan asoslash dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida, zamonaviy adabiyotning barcha turlarida ayollar adabiyoti, uning tarixiy taraqqiyoti, poetik qonuniyatlari, individual uslubiy mahorati, qalb dialektikasi, badiiy olamiga xos xususiyatlar haqida ijtimoiy-psixologik, lingvokulturologik ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Oʻzbek adabiyotshunosligida ayollar ijodkorligi uzoq oʻtmishga borib taqalishi, xususan, xalq ogʻzaki ijodi ayol ijodkorligining ilk koʻrinishi ekanligi, bu ijodkorlik janrlar takomili bilan bogʻliqligi, janrlar – ruhiy kayfiyat ifodalash vositasi ekanligi nasriy va nazmiy asarlarda ayol qalbi tasvirining oʻziga xos takomillashuvi bugungi adabiy jarayonda ayol ijodkorligida qalb tasvirini, ruhiy olamini chuqurroq oʻrganishga alohida diqqat qaratilmoqda.

Mamlakatimizda soʻnggi yillarda ayol ijodkorlarga eʼtibor ortib bormoqda. Ular asarlaridagi xarakter yaratish masalasi, lirik qahramon va kitobxon munosabati, uslub poetikasi, ijtimoiy muhit tasvirida ayol obrazi tadqiqiga doir koʻplab izlanishlar yuzaga kelmoqda. Bu esa hozirgi adabiy jarayon va mumtoz adabiyotda ayol ijodkorlar fenomeniga qiziqishni kuchaytiradi. “Oʻzbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda oʻrganish va targʻib qilish, koʻp qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bogʻliq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, oʻylaymanki, katta ahamiyatga ega”<sup>1</sup>. Natijada ayollar sheʼriyati va uning tarixiy taraqqiyotini, folklorshunoslikdan bugungi adabiy jarayongacha boʻlgan davrlarda oʻziga xos ifoda yoʻnalishiga ega boʻlgan ayol qalbi tasviri masalasini genderlik nuqtayi nazaridan oʻrganish dolzarb ekanligini belgilab beradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “Oʻzbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda oʻrganish va targʻib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani oʻtkazish toʻgʻrisida”gi farmoyishi, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Oʻzbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda oʻrganish va targʻib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yoʻllagan tabrigi. Elektron resurs: <https://prezident.uz/uz/lists/view/1926>.

son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Ayollar adabiyoti, ayol qalbi tasviri va talqini, ayollar she‘riyatida janr va uslublar rang-barangligiga oid tadqiqotlar poetikasiga jahonning yetakchi markazlarida, jumladan, Cambridge University, Oxford University, Yale University (Angliya), Süleyman Demirel Üniversitesi, Ankara Üniversitesi (Turkiya), Institut sociálních vztahů, Univerzita Karlova (Praga), New York University, Georgetown University, University of Texas (AQSh) hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Samarqand davlat universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti (O‘zbekiston)da tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahon adabiyotshunosligida ayollar adabiyoti va ularning o‘ziga xos poetik olamining nazariy asoslarini tadqiq etish, she‘riyatda ayol qalbi tasvirini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar negizida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: ayollar adabiyotining nazariy asoslari ishlab chiqilgan va metodologiyasi yaratilgan (Cambridge University, Oxford University, Yale University, Great Britain); ayol ijodkorlarning o‘ziga xos poetik uslublari aniqlangan (Süleyman Demirel Üniversitesi, Ankara Üniversitesi, Turkiya); shoir – erkaklar va shoira – ayollar ijodi psixologiyasiga e‘tibor qaratilib, konsepsiyasi ishlab chiqilgan (Institut sociálních vztahů, Univerzita Karlova, Praha); adabiyotshunoslikning bir tarmog‘i sifatida “ayollar adabiyoti” aniqlangan (New York University, Georgetown University, University of Texas, USA); ayol ijodkorlar she‘riyatida milliy xarakter yaratish va uning usullari ochib berilgan (Belarussiya, Ukraina, Moskva davlat universiteti, Rossiya); o‘zbek mumtoz adabiyotida maktab yaratgan ayol shoirlar va ularning lirik merosida ayol tabiati va kechinmalari qiyosiy jihatdan ochib berilib, shu kabi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Samarqand davlat universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, O‘zbekiston) bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Jahon adabiyotshunosligi bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga oid tadqiqotlar olib borilmoqda: folklorda ayollar ijodkorligi

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar jahonning quyidagi yetakchi oliy ta‘lim muassasalarida olib borilgan: <https://www.psu.edu/>, <https://www.berkeley.edu/>, <http://new.huji.ac.il/en>, <https://www.unhas.ac.id/en>, <https://um-surabaya.ac.id/ums/>, <http://www.zhsust.edu.bd/>, [www.msu.ru](http://www.msu.ru), <http://www.psu.ru/>, [www.csu.ru](http://www.csu.ru), [www.gsu.bl](http://www.gsu.bl), [www.vu.lt](http://www.vu.lt), [www.gsu.bl](http://www.gsu.bl), [www.samdu.uz](http://www.samdu.uz). <http://www.samdchti.uz>.

masalasini tadqiq etish; ayol ijodkorlar she'riyatidagi hayotiy-estetik konsepsiyalar, qalb dialektikasini o'rganish; muayyan asar tahlili orqali ijodkor ayol badiiy olamini kashf etish; shoiralarning ayol qalbi tasviri, lirik kechinma va uning poetik ifodasining o'ziga xosligini aniqlash; lirik asar misolida ayol ruhiyati tasvirini tahlil etish tamoyillarini asoslash.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ayol ijodkorligi masalasi xalq og'zaki ijodi, jahon adabiyotshunosligida tadqiq etilgan va o'rganilgan<sup>3</sup>. XX asrda ayollar adabiyoti va taraqqiyoti ingliz, rus, belorus, moldavan, tatar, ozarbayjon, turk kabi ko'plab xalqlar adabiyotshunosligida tadqiq etilgan va bu kabi ilmiy tadqiqotlar bugungi kunda ham davom etmoqda. "Ayollar adabiyoti"ning rivoji, xususan, she'riyati tadqiqi borasida jahon adabiyotshunosligida salmoqli ishlar qilingan. Jumladan, N.Beym,<sup>4</sup> A.J.Greyvs<sup>5</sup>, M.Makintosh<sup>6</sup>, V.Lipnevich<sup>7</sup>, E.Shovolter<sup>8</sup>, T. Chaban<sup>9</sup>, A.Zorin<sup>10</sup>, S. Aliyeva<sup>11</sup>, K.P.Estes<sup>12</sup>, M.Uraz<sup>13</sup>, S.A.İspirli<sup>14</sup>, M.Arslan<sup>15</sup> asarlarida alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan. O'zbek adabiyotshunosligida ayollar adabiyoti, ayol obrazi, qalb kechinmasi talqini masalasi Sh.Abdullayeva<sup>16</sup>, A.Mo'minova<sup>17</sup>, X.Lutfiddinova<sup>18</sup>, P.Kenjayeveva<sup>19</sup>, O.Duysenbayev<sup>20</sup>, G.Umurova<sup>21</sup>, Y.Eshmatova<sup>22</sup>, M.O'razbayeva<sup>23</sup>,

<sup>3</sup> Виноградов В.В. История русского литературного языка / В.В. Виноградов [Отв. ред., сост., авт. вступ. ст. и коммент. д. филол. н. Н.И. Толстой] ; [АН СССР, Отд-ние лит. и яз.]. – Moskva: Nauka, 1978. – С.320.; Головин В.В. Русская колыбельная песня в фольклоре и литературе, 2000. – С.451.; Ван И. Личное имя в русской фольклорной картине мира (на фоне китайской) Дисс... докт. филол. наук. - ФГАОУ ВО «Южный федеральный университет». Ростов на Дон, 2021. – С.117.

<sup>4</sup> Baym N. Woman's fiction: A guide to novels by a. about women in Amerika, 1820-1870. ( Ayollar badiiy adabiyoti: Amerikadagi ayollar haqidagi romanlarga qo'llanma, 1820 – 1870). – Xaga: London: Cornell univ. Press, 1978. – P.320.

<sup>5</sup> Graves A.J. Woman in America. (Amerikadagi Ayol), 1844.

<sup>6</sup> Makintosh M.J. Woman in America: Her work and her reward. (Amerikadagi ayol: uning mehnati va mukofotlanishi). – N.Y.: – Filadelfiya, 1850.

<sup>7</sup> Липневич В. Литературное обозрение. (Adabiy mushohada), 1986, № 3. – С. 43-47.

<sup>8</sup> Shouvolter E. Woman who write are woman. (Ayol yozuvchilar ayoldirlar). – New York times book, rev., 1984. 16 dek. – P. 1-31.

<sup>9</sup> Чабан Т. Традиция обяывает (An'ana majbur qiladi) // Неман – Минск, 1984, № 3. – С. 162-167.

<sup>10</sup> Зорина А. Русские поэты XIX века. (XIX asr rus shoiralari) // Библиотекарь. – Москва: 1982, №3. – С. 51-53.

<sup>11</sup> Алиевой С. Мир глазами женщины. Заметки на полях «женской прозы». (Dunyo ayol nigohida. "Ayol nasri" sohasiga oid eslatmalar) // Литературная Россия, 1984 йил, 9 марта, № 11. – С.11; 16 марта, № 12. – С.8-9.

<sup>12</sup> Estés C.P. Women Who Run with the Wolves: Myths and Stories of the Wild Woman Archetype. – NY: Ballantine Books, 1996.; Бегущая с волками. Женский архетип в мифах и сказаниях. – Москва: София, 2010.

<sup>13</sup> Murat Uraz. Kadin Sair ve Muharrirlerimiz [Our Women Poets and Writers]. – İstanbul, 1941.

<sup>14</sup> Serhan Alkan İspirli. Osmanlı Kadının Şiiri // Türkoloji Araştırmaları [Poem of Ottoman Woman / Turkish Studies]. Fall. 2007. № 2/4. – P. 445-454.

<sup>15</sup> Mehmet Arslan. Seref Hanim Divani [Divan of Seref Hanim]. – İstanbul, 2002.

<sup>16</sup> Абдуллаева Ш. Алишер Навоийнинг хотин-қизлар ҳақидаги гуманистик фикрларига доир ("Хамса" асарида): Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 1954. – Б. 119.

<sup>17</sup> Мўминова А. Ўзбек халқ эртақларида хотин-қизлар образи: Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 1967. – Б. 230.

<sup>18</sup> Лутфиддинова Х. Ёзувчининг эстетик идеали ва аёллар образи: Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 1994. – Б. 136.

<sup>19</sup> Кенжаева П. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қахрамон руҳиятини тасвирлаш тамойиллари: Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2009. – Б.128.

<sup>20</sup> Дуйсенбаев О. Ўтқир Ҳошимов ижодида она образи: Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2012. – Б.144.

<sup>21</sup> Умурова Г. Зулфия бадий олами ва поэтик мактаби. Филол.фан.док... (DSc) дисс.автореф. – Самарқанд, 2019. – Б.68.

<sup>22</sup> Эшматова Ю. Истиклол даври ўзбек қиссачилигида аёл руҳиятининг бадий талқини. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 135.

N.Xaytaliyeva<sup>24</sup>, N.Saloxiddinova<sup>25</sup>larning ilmiy tadqiqotlarida maxsus o‘rganilgan bo‘lsa, M.Shayxzoda<sup>26</sup>, M.G‘olima<sup>27</sup>, I.G‘afurov<sup>28</sup>, A.Oripov<sup>29</sup>, M.Murodov<sup>30</sup>, X.Lutfiddinova<sup>31</sup>, Z.Isomiddinov<sup>32</sup>, Q.Yo‘ldoshev<sup>33</sup>, B.Rajabova<sup>34</sup>, S.To‘laganova<sup>35</sup>, M.Qo‘chqorova<sup>36</sup> kabi olimlarning tadqiqotlarida uchraydi. Ayollar she‘riyati, ayollar adabiyoti borasida bir qancha bahsli mulohazalar ham paydo bo‘ldi. Jumladan, dotsent Sh.Nazirova “O‘zbek adabiyotida ham maxsus “ayollar adabiyoti” tushunchasi mavjud emas, ammo ayollar ijodi mavjud va u o‘z tarixiga ega”<sup>37</sup>, – deb alohida o‘zbek “Ayollar adabiyoti” tushunchasini inkor etsa, professor G.Umurova Zulfiya ijodi misolida o‘zbek adabiyotida bunday tushuncha borligiga ishora qilib o‘tgan: “XX asr o‘rtalarida jahon feminizatsiyasi so‘z san‘atiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazdi, natijada “Ayollar adabiyoti” tushunchasi paydo bo‘ldi. Bu adabiyotning tipologik belgilari, o‘ziga xos xususiyatlari, ayrica mavqeyi jahon adabiyotshunosligida bir qadar o‘rganilgan. Zulfiya va uning poetik maktabi vakillari ijodini “Ayollar adabiyoti”ning bir halqasi sifatida o‘rganish yangicha adabiy qarashlar va to‘xtamlarga kelishga imkon beradi”<sup>38</sup>. Bajarilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, berilgan ilmiy qarashlar tadqiqotning umumiy obyekti doirasida talqin qilinmoqda. Biz yuqoridagi fikrlar mohiyatidan kelib chiqib, “O‘zbek ayollar adabiyoti” va “O‘zbek ayollar adabiy tanqidi”, garchi ularning elementlari o‘zbek adabiyoti tarixida mavjud bo‘lsa-da, o‘zbek adabiyotshunosligida alohida, mustaqil sohalarga ajratilmagan va tizimli tarzda o‘rganilmagan. “O‘zbek ayollar adabiyotshunosligi” “O‘zbek ayollar adabiyoti” yutuqlari bilan qiyoslanganda, “O‘zbek ayollar adabiyotshunosligi” metodologiyasining aniq ta‘rifi, o‘ziga xos belgilarining ishlab chiqilmaganligi

<sup>23</sup> Ўразбаева М. Ҳозирги ўзбек романчилигида аёл образи ва унинг киёсий таҳлили. Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2021. – Б.135.

<sup>24</sup> Хайталиева Н.С. “Ҳозирги ўзбек лирикасининг поэтик хусусиятлари (90 йиллар аёллар шеърляти мисолида)”. Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2022. – Б.139.

<sup>25</sup> Салохиддинова Н.И. Ҳозирги ўзбек аёл жодкорлар шеърлятида поэтик образ ва услуб масаласи (Зулфия Мўминова, Зебо Мирзо, Ҳалима Аҳмедова, Фарида Афрўз шеърляри мисолида). Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) автореф. – Фаргона, 2022. – Б.58.

<sup>26</sup> Шайхзода М. Навоий ижодида аёл образи. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 58-68.

<sup>27</sup> Голима М. Туроннинг алп кизлари. – Тошкент: Ёзувчи, 1997. – Б. 112.

<sup>28</sup> Гафуров И. Зулфия сиймоси // Шарқ юлдузи, 2015, №1. – Б. 114-120.

<sup>29</sup> Оripov А. Жонфидолик. Халима Худойбердиева “Танланган асарлар”ига сўз боши. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б. 4.

<sup>30</sup> Муродов М. Ўзбек “Гўрўғли” дostonларида хотин-кизлар образи // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1961, №6. – Б. 27-34.

<sup>31</sup> Лутфиддинова Х. Гулларнинг раъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 45.

<sup>32</sup> Исомиддинов З. Икки аёл / Ўзбек адабий танқиди. – Тошкент: TURON – IQBOL, 2011. – Б.372-385.

<sup>33</sup> Йўлдошев Қ. Кинояга йўғрилган умид // Жазирамадаги одамлар. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2005. – Б. 234.; Йўлдошев Қ. Дунёда менинг тасаввуримдан бошқа нарса йўк... // Оворанинг кўрган-кечирганлари. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 3-14.

<sup>34</sup> Ражабова Б. Оналар билан суҳбат. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014. –Б.55.; Ражабова Б. Муштарак адабий ҳодисалар. – Тошкент: Muharrir, 2019. – Б. 82–87, 128-142.

<sup>35</sup> Тўлаганова С. Бадиий қахрамон руҳияти муаммоси. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ Ризограф. 2014. – Б. 144-145.

<sup>36</sup> Қўчқорова М. “Ўтмишдан эртактлар” тадқиқи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.

<sup>37</sup> Назирова Ш.М. “Аёллар адабиёти” тушунчаси хусусида мулоҳазалар (ўзбек ва хитой адабиётининг киёсий таҳлили мисолида). // Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta‘lim texnologiyalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya, 2020. – Б. 149.

<sup>38</sup> Умурова Г. Зулфия бадиий олами ва поэтик мактаби. Филол.фан.док... (DSc) дисс.автореф. – Самарқанд, 2019. – Б. 23-24.

yaqqol ko'zga tashlanadi. Tadqiqotimiz doirasida bu masalalarni yoritishni maqsad qildik. Bizningcha, jins psixologiyasining o'ziga xos jihatlari, fiziologik funksiyasi, qiziqish va maqsadlari, vazifalari nuqtayi nazaridan, shuningdek, jahon adabiyotshunosligining global jarayonlariga uyg'un, ular bilan hamqadam bo'lishlik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zbek adabiyotshunosligida ham "O'zbek ayollar adabiyoti"ning ravnaqini belgilamoq "Ayollar adabiyotshunosligi"ning mezonlari asosida ayol psixologiyasi, ayol qismati va ular ijodida qalb tasvirining poetik o'ziga xos jihatlarni tadqiq qilmoq va nazariyasini ishlab chiqmoq tadqiqotning dolzarbligini ko'rsatadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari" mavzusi yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek ayollar she'riyatida qalb tasviri va talqini masalasini genderlik nuqtayi nazaridan ochib berish, ayol ijodkorlar asarlarida ayol badiiy olami poetik tasvirining o'ziga xosligini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

xalq og'zaki ijodida xalq vakillari ijodkorligini tadqiq etish, mumtoz adabiyot XX asr ayollar adabiyoti uchun zamin vazifasini o'taganligini, shuningdek, adabiyot tarixida ayol ijodkorligi fenomeni masalasini turistik adabiy aloqalar misolida xitoy, koreys, yapon, turk, arab, hind va o'zbek mumtoz ayol ijodkorligini isbotlash;

XX asr o'rtalarida jahon feminizatsiyasi badiiy so'z san'atiga ham o'z ta'sirini o'tkazganligini, bu hodisa "ayollar adabiyoti" tushunchasini yuzaga chiqarganligini o'rganish hamda jahon feminizm adabiyotiga hissa qo'shgan ijodkor ayollar o'rnini aniqlash;

ayol qalb dialektikasi tasvirini shoira H.Xudoyberdiyeva, H.Ahmedova, Z.Mirzo kabi shoirlar badiiy olami orqali ochib berish va ayol qalbi va tuyg'ularining takomilini dalillash;

ayollar she'riyatida muntazam qo'llanib kelingan she'riy janrlar va shakllar xilma-xilligini o'rganish, janr poetikasi – ruhiy kechinma tabiatini anglash usuli ekanligini asoslash;

badiiy nutqning o'ziga xosligi va individual uslubni belgilovchi omillari ekanligini aniqlash hamda ayollar she'riyatida kechinma tasvirini bugungi adabiy qarashlar asosida dalillash.

**Tadqiqot obyektini** sifatida Halima Xudoyberdiyeva, Halima Ahmedova, Zebo Mirzo singari shoiralarning she'riy to'plamlari hamda mavzuni kengroq yoritish maqsadida Uvaysiy, Nodirabegim, Dilshodi Barno, Zulfiya kabi shoiralarning she'rlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** shoiralarning badiiy izlanishlari, badiiy olaming asosini ifodalovchi, lirik tuyg'u, kechinma, ohang va tasvir, milliy o'ziga xoslik belgilarining namoyon bo'lish jarayoni tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tarixiy-madaniy, tarixiy-qiyosiy, biografik, psixologik, tizimlashtirish, analitik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ayollar ijodida folklor janrlari alla, qo‘shiq, lapar, yor-yor, topishmoqlarda ayol orzulari, armonlari, niyatlari, xotiralari, qayg‘u, shodlik, ayriliq, jasorat, vafo motivlari orqali berilganligi, jumladan, allalarda farzandning ma‘naviy va jismoniy kamoloti bolajonim, oppog‘im, farzandimning farzandi singari ochiq va toychog‘im, qo‘zichog‘im, lochinim kabi yopiq holatlarda aytilishi asoslangan;

Halima Xudoyberdiyeva, Halima Ahmedova, Zebo Mirzo kabi shoirlar ijodida qalb, yurak, soch, ko‘z kabi mavhum makonlarning ko‘p takrorlanishi hamda ular she‘riyatida g‘azal, qo‘shiq, bag‘ishlov, esse, ballada, marsiya, qasida, suhbat janrlarining yetakchiligi dalillangan;

“femenizm”, “gender tenglik” kabi tushunchalar Nina Beymning mehribon ona, sevimli yor, opa-singil sifatleri “Ayollar adabiyoti”; Daniela Stilning vafodorlik, muhabbat, ayol qadr-qimmatini “O‘g‘irlangan baxt”, “Bo‘sa”; vafo, hijron, sog‘inch, ayriliq motivlari Zulfiyaning “Hayot varaqlari”, “Xotiram siniqlari” asarlari orqali isbotlangan;

Zulfiya, Halima Xudoyberdiyeva, Halima Ahmedova, Zebo Mirzo asarlarida shakliy-kompozitsion, nutqiy-uslubiy, badiiy g‘oya va ifoda yaqinligi hamda faqat ayollar adabiyotiga xos individual uslub va poetik mahoratda intonatsiya, ritm, musiqiylik, bo‘g‘in, turoq, ritmik pauza, vazndagi soddalik, tushunarlilik, qofiyalardagi unli tovushlarning takrorlanishi ochib berilgan;

rus, belorus, fors-tojik, arab, o‘zbek adabiyotida ayol obraziga nisbatan qo‘llanilgan burch, sadoqat, iroda, go‘zallik, mehr kabi tushunchalarning uslubiy jihatdan vaqt va makondagi, ijtimoiy muhit tasviridagi, so‘z qo‘llashdagi, obraz tanlashdagi ayol ruhiy olami ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o‘zbek adabiyotshunosligida ayollar adabiyotining shakllanishi, jumladan, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan bugunga qadar adabiyotda ayollar ijodkorligining mavjudligi asoslangan;

XX asr o‘zbek adabiyotida Zulfiya ijodi etalon vazifasini o‘taganligi, keyingi davr ijodkorlari shoironing ijodiy maktab izdoshlariga aylanib ulgurganligi, natijada Halima Xudoyberdiyeva, Halima Ahmedova, Zebo Mirzo kabi shoirlar she‘rlarida ayol kechmishi, his-tuyg‘ularining o‘ziga xos tarzda ifodalanganligi dalillangan;

ayol ijodkorlarning she‘rlarida badiiy nutq va individual uslub, mavzu va g‘oya mushtarakligi qiyosiy jihatdan aniqlangan;

ayollar she‘riyatida janr va davr poetikasini tasniflash, shuningdek, adabiy janrlardan adabiy shakllarning farqi ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot mavzusi bo‘yicha e‘lon qilingan ma‘lumotlar, tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan metodlar va nazariy ma‘lumotlar ishning maqsadiga mosligi, ayol qalbi tasviri va talqinini yaratishda tahlilga tortilgan lirik asarlarning ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi, keltirilgan fikr va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan ma‘qullanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hozirgi zamon o‘zbek she‘riyatida ayol qalbi tasviri va ifodasiga

oid qarashlar, ilmiy muomalaga kiritilgan va nashr qilingan manbalar haqidagi nazariy xulosa va tavsiyalardan sohaga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillashtirish, adabiyotshunoslik yo‘nalishini yanada rivojlantirish, mavzuga oid tadqiqot va monografiyalar yaratish, adabiy aloqalar va adabiy ta’sir masalalarini tadqiq etishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya xulosalari va tavsiyalaridan “Hozirgi adabiy jarayon”, “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” fanlaridan innovatsion darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yaratish, ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari mazmunini takomillashtirish, fakultativ darslar va maxsus kurslar ishlab chiqish, adabiyot nazariyasi, jahon adabiyoti kabi fanlar mazmunini nazariy xulosalar bilan takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosa, tavsiya va ishlanmalar asosida:

ayollar ijodida folklor janrlari alla, qo‘shiq, lapar, yor-yor, topishmoqlarda ayol orzulari, armonlari, niyatlari, xotiralari qayg‘u, shodlik, ayriliq, jasorat, vafo motivlari orqali berilganligi, jumladan, allalarda farzandning ma’naviy va jismoniy kamoloti bolajonim, oppog‘im, farzandimning farzandi singari ochiq va toychog‘im, qo‘zichog‘im, lochinim kabi yopiq holatlarda aytilishi asosidagi ilmiy natijalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi  $\Phi A-\Phi-1-005$ -raqamli fundamental loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 15-fevraldagi 17-01/108-son ma’lumotnomasi). Natijada marosim qo‘shiqlari, alla aytish, yor-yor, mavsum qo‘shiqlari ayollarning ishtirokisiz bo‘lmasligi masalasini qiyosiy-tipologik, ilmiy-nazariy metodlar asosida o‘rganish imkoniyati yaratilgan;

jahon adabiyotida ayol ijodkorligi fenomeni, ularning qalb kechinmalari rus, belorus, fors-tojik, arab, o‘zbek adabiyotida ayol obraziga nisbatan qo‘llanilgan burch, sadoqat, iroda, go‘zallik, mehr kabi tushunchalarning uslubiy jihatdan vaqt va makondagi, ijtimoiy muhit tasviridagi, so‘z qo‘llashdagi, obraz tanlashdagi, ayol ruhiy olami ochib berishdagi masalasiga doir nazariy fikrlardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2012-2016-yillarda bajarilgan “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi  $\Phi A-\Phi 1, \Gamma 002$ -raqamli fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 15-fevraldagi 17-01/108-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi ayollar ijodida qalb dialektikasi tasvirini ochishda janrlar – ruhiy kayfiyat ifodalashga vosita ekanligini teran idrok etishga xizmat qilgan;

Halima Xudoyberdiyeva, Halima Ahmedova, Zebo Mirzo kabi shoirlar ijodida qalb, yurak, soch, ko‘z kabi mavhum makonlarning ko‘p takrorlanishi hamda ular she’riyatida g‘azal, qo‘shiq, bag‘ishlov, esse, ballada, marsiya, qasida, suhbat janrlarining yetakchilik kasb etishi kabi nazariy xulosalardan O‘zbekiston

Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklor institutida Davlat ilmiy-texnika dasturi doirasida amalga oshirilayotgan 2017-2020-yillarga mo‘ljallangan OT-F1-77-raqamli “O‘zbek adabiyoti durdonalari 100 jildligini nashrga tayyorlash” fundamental ilmiy loyihasini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklor institutining 2023-yil 27-martdagi 29-son ma‘lumotnomasi). Tadqiqot natijalarini amaliy qo‘llash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ayol ijodkorlar tomonidan yaratilgan ayol obrazining erkak ijodkorlar asarlaridagi ayol timsoli haqidagi tadqiqotlarning ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

“femenizm”, “gender tenglik” kabi tushunchalar Nina Beymning mehribon ona, sevimli yor, opa-singil sifatleri “Ayollar adabiyoti”; Daniela Stilning vafodorlik, muhabbat, ayol qadr-qimmatli “O‘g‘irlangan baxt”, “Bo‘sa”; vafo, hijron, sog‘inch, ayriliq motivlari Zulfiyaning “Hayot varaqlari”, “Xotiram siniqlari” asarlari orqali isbotlanganligiga doir fikrlardan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2016-2018-yillarga mo‘ljallangan 561624 – EPP – 1 – 2015 – UK – EPPKA2 – CBHE – SP – ERASMUS + CBHE IMEP: O‘zbekistonda Oliy ta‘lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 15-martdagi 710/30.02.01-son ma‘lumotnomasi). Natijada jahon adabiyotshunosligida ayol obrazini, uning qalb kechinmalari talqinini zamonaviy metodologiya asosida o‘rganish yanada takomillashishiga asos bo‘lgan;

ayollar she‘riyatida qo‘llanishi muntazam bo‘lgan she‘riy janrlar va shakllar xilma-xilligini o‘rganish, janr poetikasi – ruhiy kechinma tabiatini anglash usuli ekanligini dalillash, shuning bilan birga chet tillarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarida “Jahon adabiyoti”, “Adabiyot nazariyasi”, “Tili o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti” kabi fanlarni o‘qitishda, vebinar darslarida talabalarning amaliy kompetensiyasini takomillashtirish maqsad qilingan o‘rinlardan 2014-2015-yillarda amalga oshirilgan I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 17-avgustdagi 148-02-son ma‘lumotnomasi). Natijada ingliz, fransuz, rus, koreys, xitoy, yapon xalqlari adabiy durdonalarini masofaviy onlayn darslarda o‘qitish jarayonida professor-o‘qituvchilarning interfaol usullardan foydalanib dars o‘tish ko‘nikmalarini yanada kuchaytirish imkonini beradi;

Zulfiya, Halima Xudoyberdiyeva, Halima Ahmedova, Zebo Mirzo asarlarida shakliy-kompozitsion, nutqiy-uslubiy, badiiy g‘oya va ifoda yaqinligi hamda faqat ayollar adabiyotiga xos individual uslub va poetik mahoratda intonatsiya, ritm, musiqiylik, bo‘g‘in, turoq, ritmik pauza, vazndagi soddalik, tushunarlilik, qofiyalardagi unli tovushlarning takrorlanishi kabi fikrlardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyat bo‘limining “Assalom, Samarqand!” tonggi dasturi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan va natijalarga erishilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyat bo‘limining 2023-yil 15-maydagi 01-07/167-son ma‘lumotnomasi). Tadqiqotdagi ma‘lumotlar

jamiyatimizda ayollar va ularning orzu-intilishlari, qalb kechinmalariga bag‘ishlangan ko‘rsatuvlar ssenariysini boyitishga qaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro konferensiya va 4 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida ma‘ruza va tezislar ko‘rinishida ilmiy jamoatchilikka havola etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha umumiy 33 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, to‘rt asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, ishning umumiy hajmi 230 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlarga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ayollar adabiyotining tarixi va nazariy asoslari”** deb nomlangan. Uning birinchi faslida *“Folklor – ayol ijodkorligining ilk manbai sifatida”* deb nomlanib, bu faslda xalq og‘zaki ijodiyotida ayollar ijodkorligi masalasi tadqiq etiladi.

Jahon adabiyotshunosligida genderlik tushunchasi XX asrdan shakllana boshlagan bo‘lsa-da, biroq “ayollar adabiyoti” va uning ichki kechinmalari, ruhiy dunyosi bilan bog‘liq jarayon xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Zotan, folklor ayol ruhiyatini aks ettiruvchi fenomen bo‘lib xizmat qiladi. Darhaqiqat, folklorga e‘tibor qaratilsa, unda ayol ruhiyatini ifoda etgan janrlar talaygina ekanligiga guvoh bo‘lish mumkin. Umuman, folklor bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan<sup>39</sup>. Ularni to‘plash va nashr etish bo‘yicha ham ana shunday harakatlarni kuzatish mumkin<sup>40</sup>. Muammoni o‘rganish esa XIX asrning birinchi choragidan boshlanadi. Bu davrda rus adabiyotshunosligida A.Vetuxov, G.Dobryakov, G.S.Venogradov, O.I.Kapisa, M.V.Krasnojenova, G.A.Bartashevich, A.N.Martinova singari olimlar tadqiqotlarini amalga oshirishadi<sup>41</sup>. Umuman, rus adabiyotshunosligida “Alla” genezisi V.V.Golovinning “Rus allasi (beshik qo‘shig‘i (ta‘kid o‘zimizniki, M.Xalova): folklor va adabiyot an‘analari sifatida”

<sup>39</sup> Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqqa, 2010. – B.364.; Mamasoliyev J. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – B. 216.; Jo‘rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: Barkamol fayz mediya nashriyoti, 2017. – B.180.

<sup>40</sup>O‘zbek xalq ijodi. Nuralining yoshligi. Tayyorlovchi va to‘plovchi Mirzayev T.// www.ziyouz.com kutubxonasi; Солижонов Й. ва бош. Читтигул. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б.96.; Ўзбек халқ ижоди. Қўшиқлар. Қўп томлик. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967. – Б.248.

<sup>41</sup> Виноградов В.В. История русского литературного языка / В.В. Виноградов [Отв. ред., сост., авт. вступ. ст. и коммент. д. филол. н. Н.И. Толстой]; [АН СССР, Отд-ние лит. и яз.]. – Москва: Наука, 1978. – С.32.

tadqiqotida o‘z ifodasini topgan<sup>42</sup>. Bu haqda rus adabiyotshunosi G.S.Vinogradov hamda xitoy tadqiqotchisi I.Van ham yuqoridagi fikrni beradi. I.Van o‘z tadqiqotida rus adabiyotshunosining qarashlariga qo‘shilgan holda uni kattalar, ya’ni ayollar (onalar, enagalar hamda buvilar) ijro etganligi bois ham ayollar qalbini ifoda etuvchi janr sifatida ma’lumot berishga harakat qiladi<sup>43</sup>. Bu borada rus adabiyotshunosi A.V.Vetuxovning “Alla” borasidagi konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotshunosning ta’kid etishicha, onaning bolaga qo‘shiq kuylashi, uning dunyoqarashining shakllanishida hamda bolalikning eng yoqimli ideal vaqt sifatidagi ko‘rinishini tasvir etadi. Asosiysi, bu janr ayolning ruhiyatini, uning mehrini va farzandi kelajagidan umidvorligini aks ettiruvchi qo‘shiq bo‘lib jaranglaydi:

<b>Rus tilida</b>	<b>O‘zbek tilida</b>
<p>Ой, люлю, моё дитятко,  Сладко, усни, дитя материно.  Все ласточки спят, и касатки спят,  И куницы спят, и лисицы спят,  Нашему Ванюше спать велят,  Для чего, зачем Ванюше не спать?  Ласточки спят все по гнездышкам,  Касаточки спят все по норочкам,  Соколы спят все по гнездышкам,  Соболи спят, где им вздумалось.  Маленькие детки в колыбельках  спят. Спи-ка, Ванюшка,  Спи-ка, дитятко родное.</p>	<p>Alla bolam, alla.  Jonim bolam, alla.  Ikki ko‘zim, alla,  Shirin so‘zim, alla.</p> <p>Alla bolam, baxti bor,  Har narsaning vaqti bor,  Jonim bolam, alla,  Shirin bolam, alla,  Ikki ko‘zim, alla<sup>44</sup>.</p>

Rus allalarida farzandning ismi tilga olinadi bu orqali qo‘shiq unga bag‘ishlanganligi ayonlashadi. O‘zbek allalarida esa farzandning nomi tilga olinmaydi, balki farzandini erkaloovchi so‘zlar orqali uni (*jonim bolam, shirin so‘zim, qora ko‘zim, qo‘zim singari*) farzandga murojaat etiladi.

O‘zbek folkloridan joy olgan to‘rtliklarda ham genderlik munosabat o‘z aksini topgan. Fikrimizga bir misol<sup>45</sup>:

<b>Ijodkor – erkak</b>	<b>Ijorkor – ayol</b>
<p>Qoshingning xanjari tegdi,  Yiqildim – chiqmadi jonim.  Sening oldingda jon bersam,  Yurakda qolmas armonim.</p>	<p>Og‘a, bo‘ylaringga sadaf o‘rayin,  Bo‘yingni bo‘yimga tenglab ko‘rayin.  Bo‘yingiz bo‘yimga munosib bo‘sa,  Ko‘nglingizning istaganin berayin.</p>

<sup>42</sup>Головин В.В. Русская колыбельная песня в фольклоре и литературе / В.В. Головин. – Турку, Åbo Akademi University Press, 2000. – С.451.

<sup>43</sup> Qarang: Ван И. Личное имя в русской фольклорной картине мира (на фоне китайской) Дисс... докт. филол. наук. – ФГАОУ ВО «Южный федеральный университет». Ростов на Дон, 2021. – С.116.

<sup>44</sup> Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – B.7.

<sup>45</sup> Шода-шода марварид. Ўзбек халқ кўшиқлари. Тайёрловчи Очилов Э. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 402. (jadvalda keltirilgan to‘rtliklar mana shu manbadan olindi).

Xalq og‘zaki ijodida yaratilgan mazkur to‘rtliklarda ham ayollar ijodkorligini aniqlash mumkin. Ayol ijodkorlar ma‘shuqa bo‘libgina qolmay, oshiq qalbi tasvirini ham bera oladi. Biroq bu tasvir to‘g‘ridan to‘g‘ri emas (yuqoridagi to‘rtlikdagi kabi, *bo‘yingizga bo‘yimni tenglayin* singari) qalb haroratini boshqa bir tushuncha orqali beradiki, natijada ayol qalbi dialektikasi ham ochila boradi. Shu bilan bir qatorda murojaat (og‘a) ham kuzatiladi. Bularning barchasi xalq og‘zaki ijodida ayol ijodkorligidan dalolat beradi. Shuningdek, mazkur faslda maqol, qo‘shiq, topishmoq kabi janrlarida ham ayol ijodkorligi masalalariga alohida to‘xtalib o‘z munosabatimizni bildirganmiz.

Birinchi bobning ikkinchi faslida “*Mumtoz adabiyotda ayol ijodkorligi fenomeni*” masalasiga diqqatimizni qaratdik.

Bugungi rus adabiyotshunosligiga e‘tibor qaratilsa, unda turistik adabiy jarayon istilohi ishlatilmoqda<sup>46</sup>. Ya‘ni adabiy jarayonni mamlakatlararo qilingan sayohat orqali kuzatish nazarda tutilgan. Biz ham ushbu tadqiqotda turistik adabiy jarayon istilohini qo‘llagan holda jahon mumtoz adabiyotiga e‘tibor qaratamiz. Jahon adabiyotining arenalarida har doim ijodkor ayollar o‘z ijodi bilan adabiyotni boyitibgina qolmay, tan olishga majbur etib ham kelishgan. Mana shu talablarga javob bera olgan ijodgina jahon adabiyotida o‘z maqomini saqlab qolgan. Bu kabi hodisalar u darajada ko‘p kuzatilmasa-da, biroq jahon adabiyotida yetakchi mavqelardan birini egallab kelmoqda. Masalan, xitoy mumtoz adabiyotiga e‘tibor qaratilsa, unda *Guan Daoshen, Yuy Suannse, Syu Tao, Li Sindjao, Ban Syuzey, Xuadjuy* singari ijodkorlar faoliyat yuritganligi ayonlashadi. Adabiyotshunos Y.K.Savetskayaning “Olti shajara silsilasi davrida ayollar she‘riyati” (bu davr 369-dan – 227-yilni qamrab oladi. Mana shu davr xitoy adabiyotida mumtoz adabiyot davri sanaladi. Ta‘kid o‘zimizniki, M.Xalova) tadqiqotida xitoy mumtoz adabiyotiga e‘tibor qaratiladi<sup>47</sup>. Adabiyotshunosning ta‘kidlashicha, bu davrda yaratilgan asarlarda ayollarning xo‘rlangan taqdiri o‘z ifodasini topgan. Masalan, mumtoz davrda xitoy shoiralari besh misrali “**Shi**” janrida ijod etishgan bo‘lib, bu lirik turning ilk namunalari edi. Mana shu janr ayol qalbi va uning ruhiyatini ochuvchi kalit vazifasini o‘tagan.

Koreya adabiyotiga e‘tibor qaratilsa, unda hatto XV asrdayoq faqat ayollarga xos bo‘lgan janrlar “**akmil**”, “**xanmun**” yuzaga kelgan. Bu ham mumtoz adabiyot davridan boshlab ayollar she‘riyati ravnaq topishidan dalolat beradi. Umuman, Koreya adabiyotida qirolichalar ham adabiy ijod bilan mashg‘ul bo‘lganligi haqida ma‘lumotlar saqlangan. Qirol Sindjonning onasi qirolicha Soxe (1437-1504) “Ayollarga nasihat” asarini yaratgan. Bu asar Koreyadagi ilk ayol ijodkor edi. U Konfutsiy ta‘limoti asosida ayollarga she‘riy yo‘l bilan o‘z maslahatlarini berishga intilgan.

Hind adabiyotida ham ayol ijodkorlar uchraydi. Biroq boshqa xalq vakillari bilan solishtirganda ularning soni ancha kam. Hind mumtoz adabiyotining yirik

<sup>46</sup><https://www.hisour.com/ru/literary-tourism-39046/>;  
faktor-razvitiya-kulturnogo-vospitaniya-na-primere

<https://cyberleninka.ru/article/n/literaturnyy-turizm-kak->

<sup>47</sup> file:///C:/Users/User/Downloads/zhenskaya-poeziya-v-epohu-shesti-dinastiy.pdf

vakilasi Mira Bay sanaladi<sup>48</sup>. Uning hayoti afsonalarga aylanib ketgan. Mira Bay ilk qo‘shiq yaratgan ijodkor sifatida nom qozongan. Uning ijodi keyinchalik lirik qo‘shiqlarga (muhabbat bobida) asos bo‘lgan.

Markaziy Osiyoda ham yuqorida qayd etilgan ijodkorlar singari yuzlab ayol ijodkorlarni misol keltirish mumkin. Markaziy Osiyodagi ijodkor ayollar xususida tadqiqotchi Salim Al-Hasanning qarashlari hamda Muhammad Akram Nadviyning keng masshtabli “Muhaddisat” nomli loyiha doirasidagi izlanishlari muhim hisoblanadi<sup>49</sup>. Doktor Muhammad Akram Nadviy ko‘p yillar davomida islom tarixida hadislar to‘plash harakatida ishtirok etgan minglab ayollarning tarjimai holini tizimlashtirish bo‘yicha o‘zining yirik “Al Muhaddisat” nomli loyihasini ishlab chiqdi. Uning bu loyihasi 40 jildlik biografik lug‘at bo‘lib, hadisni o‘rgangan va yetkazgan musulmon ayollarining ijodiy ishlaridan iborat edi. Ijodkor ayollarning payg‘ambarimiz Muhammad (S.A.V.) ta‘limotlarini to‘plashda katta hissa qo‘shganligini islom ta‘limotining qoida va me‘yorlarini tushunishning kaliti sifatida e‘tirof etdi. Bu haqda professor G.Baltanova ham o‘z tadqiqotida aynan ayollarning hadis ilmini sahih holatda saqlashga harakat qilganligini tahlillar asosida isbotlashga harakat qiladi<sup>50</sup>.

O‘zbek mumtoz adabiyotiga nazar tashlansa, bu adabiyotda ham chinakam asar yarata olgan hamda o‘z nomini tarixga muhrlagan shoiralarni uchratish mumkin<sup>51</sup>. Zebunniso, Nodirabegim, Uvaysiy, Dilshodi Barno, Anbar Otin shular jumlasidandir. O‘tmishda yashab ijod qilgan shoiralarning aksariyat badiiy merosi bizgacha to‘liq yetib kelmagan. Fazliyning “Majmuattush shuaro”, Sadridin Ayniyning “Tarixi adabiyoti tojik”, adabiyotshunos Toji Usmonning “Bistu se adiba” kabi asarlarida ayrim shoiralalar va ularning ijodi bilan bog‘liq muhim ma‘lumotlar keltirilgan.

Bu boradagi aniq manbalardan biri 1914-yilda Mirzaa‘zam Ibrohim o‘g‘li Davron tomonidan to‘plab nashr etilgan “Ash‘ori Nisvon” kitobidir. “Ash‘ori Nisvon” oltmish betlik ixcham kitobcha bo‘lib, unda yigirma uch shoiraning qirq to‘rtta she‘ri jamlangan. Kitobning boshida Ibrohim Davronning “Bir so‘z”, “Xotinlar haqida bir nutq” maqolalari keltirilgan bo‘lib, ushbu maqolalarda ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rniga yuksak baho beriladi. Garchi muallif shoiralarning tarjimai holi haqida ma‘lumot keltirmasa-da, kitobda jamlangan she‘rlar shoiralarning badiiy didi, ichki poetik mahorati to‘g‘risida muayyan ma‘lumotlar bera oladi. *Nozima xonim*, *Vasila xonim*, *Nozuk xonim*, *Osima xonim* kabi o‘nlab ayol ijodkorlar ijodi adabiyot tarixida unchalik katta o‘rin tutmasa-da,

---

<sup>48</sup> Qarang: E.M.Андреева, М.П.Лаптева. Женщина в индуизме. Вестник пермского университета. 2004, Выпуск 5. – С.12-21.

<sup>49</sup> Qarang: <http://dkm.gov.uz/en-US/vklad-zensin-v-klassiceskuu-islamskuu-civilizaci-u-nauka-medicina-politika> (markaziy osiyo ijodkor ayollar haqidagi ma‘lumot mana shu manbadan olindi).

<sup>50</sup> Балтанова Г. Великие женщины раннего Ислама. [https://idmedina.ru/books/history\\_culture/minaret/7/baltanova.htm](https://idmedina.ru/books/history_culture/minaret/7/baltanova.htm).

<sup>51</sup> Адабий мерос. Ўзбек адабиёти тарихидан тадқиқот материаллар: илмий асарлар тўплами. С/ 49/. – Тошкент, 1989. – Б.79.; Жалолов Т. Ўзбек шоиралари. 1-китоб (XVII асрдан октябрь инкилобигача). II нашр. – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1970. – Б.344.; Т.Усмон. Бисте се адиба. – Душанбе: Нашриёти давлати Тожикистон, 1957.; Хамраева А. Ўзбек шоиралари гўзаллик истаб (XIX аср ва XX асрнинг боши). – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 1974. – Б.35.; Нодира. Девон. Ўзбек ва форс тилларидаги шеърлар. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1963. – Б. 619.

XIX asr oxiri XX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhitida bir qator iste‘dodli xotin-qizlar ijod qilganligidan guvohlik beradi.

“XX asrda femina va feminizm” deb nomlangan navbatdagi faslda feminizm va uning mohiyati haqida keng tarzda ma‘lumotlar berilgan. 1971-yili Olimpiya de Guj “Fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasi”ni tayyorladi hamda ayollarning erkin fikrlash va o‘z fikrini erkin e‘lon qilish huquqiga ega ekanligini ta‘kidladi. Bu deklaratsiya ayollar harakatining birinchi Manifesti hisoblanadi. Shuning uchun ham mana shu vaqtdan boshlab de Guj hamda uning tarafdorlarini “Feministlar”, ularning harakatlari esa – “Feminizm” deb atala boshlandi.

XX asr o‘rtalarida jahon feminizatsiyasi badiiy so‘z san‘atiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazdi va “ayollar adabiyoti” tushunchasini yuzaga chiqardi. “Ayollar adabiyoti”ni o‘rganish, o‘z navbatida, “ayollar adabiyotshunosligi” terminologik konsepsiyasini ham yaratdi. Amerikalik adabiyotshunoslar “ayollar adabiyotshunosligi”da salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirishdi va aynan amerika feministik adabiy tanqidi va adabiyotshunosligi dunyoda yetakchi mavqega ega bo‘ldi<sup>52</sup>. Eng qadimgi davrlarda ham badiiy ijod, xususan she‘riyat bilan shug‘ullanuvchi ayol shoirlar bo‘lishgan. Antik davrda shoira Sappfoning dong‘i butun olamga mashhur bo‘lgan. Erkak ijodkorlar bilan baravar ijod qilib, iste‘dodini ochiq namoyon qila olgan. Bu ijodkor an‘anasi Uyg‘onish davrida ham davom etadi. Bu an‘ananing davomchilari sifatida Margaret va Luiza Labe (Fransiya), Vittoria Kolonna va Gaspara Stampa (Italiya) asarlarini aytib o‘tish o‘rinlidir.

1978-yilda amerikalik tadqiqotchi Nina Beym “Ayollar adabiyoti” kitobini nashr etdi, u “1820-1870-yillar Amerika ayollari tomonidan yozilgan romanlar bo‘yicha ma‘lumotnoma”<sup>53</sup> deb nomlangan.

Ko‘rib chiqilayotgan asarlar AQSh adabiyotidagi oxirgi ellik yillik davrdagi feminizm holatini aks ettiradi. N.Beym madaniy-tarixiy maktab an‘anasida ayollar romanchiligining tipologiyasini shakllantiradi, hamda uning strukturaviy mexanizmiga e‘tibor qaratadi. XIX asr o‘rtalarida ijodi gullab-yashnagan ayol ijodkor asarlari tahlil obyekti sifatida tanlanadi, ammo keyinchalik ularning ismlari o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Bular Ketrin Mariya – Sedjvik, Sara Xeyl, A.J.Greyvs, Mariya Makintosh, Emma Sautvort va Karolina Li Xenz, Mari Kamins va Mariam Kouls Xarris kabilar.

Shuningdek, mazkur faslda zamonaviy Amerika adabiyotining yetuk vakillaridan biri Daniela Stil hayoti va ijodi misolida gender tushunchasi bilan bog‘liq qator muammolar talqin etilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Bu uning “Taqdir so‘qmoqlari”, “O‘g‘irlangan baxt”, “Bo‘sa” romanlarida yorqin aks etganligi alohida ta‘kidlangan. Ingliz yozuvchisi Virjiniya Vulf, mashhur fransuz yozuvchisi, ekzistensializm falsafasining hamda feministik harakatning yetuk vakili Simona de Bovuar, aslida, amerikalik, biroq umrining aksariyat qismini

---

<sup>52</sup> Qarang: Donoghue D. A criticism of one’s own // New Republic. – Wash., 1986. – Mar. 10. – Vol. 194, № 10. – P.30-34.

<sup>53</sup> Baym N. Woman’s fiction: A guide to novels by a. about women in Amerika, 1820-1870.( Ayollar badiiy adabiyoti: Amerikadagi ayollar haqidagi romanlarga qo‘llanma, 1820 – 1870). – Xaga; London: Cornell univ. Press, 1978. – P.320.

Parijda yashab o‘tkazgan yozuvchi va modernizm nazariyotchisi Gertruda Stayn, rus shoirasi Anna Axmatova, Marina Svetayevalar ijodiga alohida munosabat bildirilgan.

Xullas, jahon arenalarida ayol ijodkorlar muhim o‘rin tutadi. Ularning ijodi orqali adabiyotga yangi janrlar (alla, lapar, aytishuv) kirib keladi hamda ayollar ijodkorligiga xos xususiyatlar kuzatiladi. Ayollar fenomenida hadislarni yig‘ish, to‘plash orqali yangi bir diniy-islomiy ziyo kirib kelishiga yo‘l ochiladi hamda olim-u ulamolar, ijodkor shaxslar uchun imkoniyat yaratishlari kuzatiladi.

Dissertatsiyaning “**XX asr she’riyatida ayol qalbi dialektikasi**” deb atalgan ikkinchi bobning birinchi fasli “*Zulfiya ijodi – XX asr she’riyatining etaloni*” deb nomlanadi. XX asr ayollar she’riyatida Zulfiya ijodi, adabiy-estetik qarashlari, shaxsiyati alohida sahifani tashkil etadi. O‘nlab nomdor shoiralarga ustozlik qilganligi, ayollar she’riyatida o‘ziga xos maktab yaratganligi va boshqa faktorlar Zulfiyani nafaqat o‘zbek, balki sharq xalqlari adabiyotining peshqadamlari qatoridaligi tahlillarda isbotlangan.

Zulfiya lirikasining ro‘yobga kelishi ham, ularning yetilish jarayoni ham boshqa ijodkorlar tajribasiga o‘xshamaydi. Uning ijodida “daf‘atan”, “bir onda”, “bir zarb bilan” yozilgan she‘rlar yo‘q, balki ular uzoq vaqt yurakda va ongda obdon pishib yetilgach, to‘kiladi. Shoiraning 1935-yilda yozilgan “Bahor kechasi” deb atalgan she‘rida so‘lim oydin kecha manzarasi tasvirlangan. Unda shunday qiziq bir manzaralar tasviri bor:

Ko‘k baxmalga gullar burkangan,  
Lab ochmagan, bulbul o‘pmagan  
Ko‘zim tushdi olma guliga,  
Dedim: taqsam eng go‘zal birin –  
So‘ylab bersa... mening chakkamda  
Dilbarligin, go‘zallik sirin.

Nima uchun yosh shoirani “*lab ochmagan, bulbul o‘pmagan*” olma guli o‘ziga tortadi? Shoira o‘z hissiyotlarida unga yaqinlik tuyadi, hissiyotlaridan unga o‘xshashlik topadi. Olma gulidagi tabiatning mujassam bokira kuyini o‘z qalbiga uyg‘un ko‘radi. Gul tabiat sahifasida qanchalik bir qo‘shiq bo‘lsa, inson ham olam qarshisida shunday bir qo‘shiqdir.

“Hayot varaqlari”dan boshlangan ijod yo‘lining “Xotiram siniqlari”gacha bo‘lgan masofasi tarix oldida uncha katta davr emas, biroq ijodkor o‘y-xayollarida juda uzoq va mashaqqatli jarayon hisoblanadi. “Xotiram siniqlari” dostoni yozilganda shoira 80 yoshda edi. “Hayot varaqlari”dagi romantik ko‘tarinki kayfiyatdagi lirik qahramon 1995-yil yozilgan “Xotiram siniqlari”ga kelib shafqatsiz realizmga yuzma-yuz keldi. Bir tuzum boshqa bir tuzumga, bir mafkura boshqa mafkuraga joy bo‘shatdi.

Hurriyat, keldingmi – nahotki kelding,  
Pinhona sog‘indim, pinhona kutdim...  
Yomg‘irga bag‘rini bergan sahrodek,  
Sening nasimingga qalbimni tutdim.

“Pinhona sog‘inib”, “pinhona kutmoq” – bu 80 yoshli shoironing xotira siniqlaridan zada bo‘lgan qalb nidosi, munojoti, dil iqrori. Zulfiya she‘riyatining badiiy qimmatini va abadiyatini belgilab bergan omillardan biri ham shu haq va haqiqatga ishonch, yorug‘ kunlarga umidvorlik bilan qarashda seziladi.

Xullas, adabiyot tarixida nom qozongan yetuk iste‘dod egalari juda ko‘p. Biroq hayotligidayoq poetik maktab yaratganlar barmoq bilan sanarli. Shulardan biri shubhasiz, shoira Zulfiyadir. Keyingi yillar she‘riyatida G.Jo‘rayeva, E.Oxunova, G.Nurullayeva, H.Xudoyberdiyeva, O.Hojiyeva, X.Bobomurodova kabi o‘nlab shoirlar Zulfiya izdoshlari sifatida e‘tirof etildilar. Bu shoiralarning har birining o‘z qalami va ovozi bor, individual uslubi borki, keyingi fasllarda aynan shu ijodkorlar haqida fikr yuritamiz.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “*Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari*” deb nomlanadi. O‘tgan asrning 60-yillari oxiri va 70-yillari avvalida o‘zbek she‘riyatiga xotin-qizlarning yangi bir avlodi kirib keldi. Gulchehra Jo‘rayeva, Oydin Hojiyeva, Gulchehra Nurullayeva, Bibisora Turobova, Hosiyat Bobomurodova, Qutlibeka Rahimboyeva kabi shoirlar avlodi shoira Zulfiya shogirdlariga aylanishdi. Iste‘dodli shoiralarning deyarli bir paytda adabiyot maydonida paydo bo‘lishi milliy she‘riyatimiz tarixidagi noyob hodisadir. Bu nomlar ichida o‘ziga xos ovoz sohibasi Halima Xudoyberdiyeva o‘zining milliy o‘zbekona ruhga yo‘g‘rilgan o‘ychan va teran she‘riyati bilan alohida ajralib turadi. XX asrning birinchi yarmi o‘zbek adabiyotida ayol ijodkorlarning soni-yu salmog‘i yuqori emasdi. Oydin Sobirova, Zulfiya, Saida Zunnunova betakror, bir-biriga o‘xshamagan bu iste‘dodlarning kirib kelishi, birinchidan, ayollar adabiyotining yangitdan paydo bo‘lanligini anglatga, ikkinchidan, ayollar adabiyotining keyingi rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi.

T.Jalolov “O‘zbek shoiralari” to‘plamidagi “Tuyg‘ular tug‘yoni” maqolasida adabiyot dargohiga kirib kelayotgan Halima Xudoyberdiyeva haqida shunday deb yozgan edi: “Halima o‘zbek ayollar she‘riyatida kutilmagan hodisa, ungacha bu san‘at koshonasida qandaydir sukunat, osudalik hukm surib, kishini mudroq bosardi. Halima bu dargohga bo‘ron bo‘lib, suron bo‘lib kirib keldi-da, to‘liqib, oshiqib, toshiqib baland pardalarda qo‘shiq boshladi.

Men shunchaki o‘ylagim kelmas,  
Xayol – sharob misol qilsin sarxush, mast.  
Men shunchaki kuylagim kelmas,  
Ovoz pardalarim chidab bersa bas.

Shu satrlar bilan boshlanadigan mumtoz, shiddatkor she‘r menga shoironing ijodiy, axloqiy, insoniy programmasi bo‘lib tuyuldi. Bu she‘r to‘lig‘icha olganda tuyg‘ularning tug‘yoni, jasoratning namoyishidir<sup>54</sup>.

Halima Xudoyberdiyeva ijodining bosh pafosini Vatanga muhabbat, ona yurtga sadoqat tuyg‘ulari tashkil etadi. Uning “Ilk muhabbat” to‘plamidayoq bu pafos o‘zligini namoyon etgan edi. Halima Xudoyberdiyevaning Vatan haqidagi she‘rlari ham ana shunday qalb satrlari bo‘lib jaranglaydi:

---

<sup>54</sup> Худойбердиева Х. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарк, 2018. – Б.6.

To bu bayroq, Vatan, nurlar  
Ich-ichingga ketsin kirib.  
Toki g‘anim vatanxo‘rlar,  
Ololmasinlar sug‘urib.  
Shunday o‘rgat qulni, xonni,  
Uchmas qush ham uchar bo‘lsin.  
To bayroqdan oldin jonni,  
Bermoq oson kechar bo‘lsin.

Halima Xudoyberdiyevaning “Tanlangan asarlar”iga so‘zboshi yozgan Abdulla Oripov ham uning ijodida Vatan mavzusidagi she‘rlar yetakchi mavqeda ekanligiga alohida e‘tibor qaratadi<sup>55</sup>. H.Xudoyberdiyeva she‘rlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida so‘z ketganda, eng avvalo, diqqatga sazovor jihatlardan biri uning o‘zbek adabiyotida o‘zbek ayoli dardini ochiq-oydin, yaqqol kuylaganligi bilan alohidalik kasb etadi.

Halima Xudoyberdiyevaning lirik qahramoni *ona, opa, singil, dugona* kabi rang-barang qiyofalarning turli ruhiy holat va kayfiyatdagi ko‘rinishlari, o‘y-kechinmalari umumlashma obrazlardan yaralgan.

Lirik xarakterning nuqtayi nazari, kechinmaning lakonik ifodasi, poetik til jozibasi, intonatsiya, ritm, musiqiylik Halima Xudoyberdiyeva she‘riy nutqining bir butunligini ta‘minlab turadi.

Bobning uchinchi fasli “*Halima Ahmedova lirikasida badiiy-estetik tafakkur tadriji*” deb nomlanadi. Darhaqiqat, Halima Ahmedova she‘riyatga Abduvali Qutbiddin, Bahrom Ro‘zimhammad, Aziz Said, Eshqobil Shukur, Faxriyor, Zebo Mirzo kabi shoirlar bilan bir davrda kirib keldi. H.Ahmedova lirikasi kechinma asosiga qurilgan tafakkur madaniyatining o‘ziga xos yangicha ifoda uslubida ko‘zga tashlanadi. Mavzu va g‘oya talqini misolida o‘ziga xosliklarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ular ijodida o‘xshash va yaqin mavzular mushtarakligi mavjud, biroq poetik g‘oya ifodasi, mazmun-mohiyat e‘tibori bilan bir-biridan ajralib turadi. Fikrlarimizning isboti uchun M.Yusuf va H.Ahmedovanning bir mavzuga oid she‘rlarini solishtirib ko‘ramiz. Tadqiqot mavzuyimizga yaqin bo‘lishi uchun har ikkala ijodkorning ayol mavzusiga bag‘ishlangan she‘rlariga murojaat qilamiz.

Muhammad Yusufning “O‘zbekning ayollari” she‘rida o‘zbek ayolining yaxlit poetik obrazi yaratilgan. She‘r shunday boshlanadi:

Uxlamaydi tunlari,  
Oy nurlari taralgan.  
O‘zbekning xotinlari  
Farzand uchun yaralgan<sup>56</sup>.

Demak, shoir nazdida o‘zbek ayoli farzand uchun yaralgan, farzandga mehr uning birinchi xislati, so‘ng she‘rning qolgan yana to‘rt bandida uning “*farzand*”ga ohangdosh, qofiyadosh “*mehnat*”, “*toqat*”, “*iffat*”, “*izzat*”dek

<sup>55</sup> Абдулла Орипов. Жонфидолик. Халима Худойбердиева “Танланган асарлар”ига сўз боши. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б.4.

<sup>56</sup> Муҳаммад Юсуф. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б.360.

ta'riflari ketma-ket keladi va o'zbek ayolining yaxlit bir beqiyos jamoli ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Halima Ahmedova ham ona haqida yozadi, biroq uning ona obrazi Muhammad Yusufning she'ridagidek tafsiliylik xarakteriga ega emas, mukammal, bir butun portret qiyofasiga ega emas. H.Ahmedova M.Yusufdan farqli o'laroq ona obrazining ayrim chizgilarini berish orqaligina poetik fikrini rivojlantiradi. Uning "Onam aytdi..." deb boshlangan she'ri misolida ham bu uslub belgilarini ko'rish mumkin:

Onam aytdi: sarg'ayibdi rayhon shoxchasi,  
Dadam aytdi: shafqat bilmas kuz kelayapti.  
...Men o'shanda ninachining qanotlariga,  
Soddagina yuragimning rasmin chizardim  
Va nurlarning arqoniga chirmashib uzoq,  
Xayolimning daraxtidan meva uzardim<sup>57</sup>.

Shoiraning mavzu va g'oya talqini borasida o'ziga xosligini tushunish va anglash uchun she'r matnini to'liq keltirish ham shart emas. Mana shu qisqa matn orqali lirik qahramon kayfiyati tasviri ochib berilgan.

Halima Ahmedova lirikasining an'anaviy usulda yozadigan Zulfiya, H.Xudoyberdiyeva, G.Jo'rayeva, O.Hojiyeva lirikasidan farqli xususiyati – muayyan masalaning qo'yilishi va uning tadrijiy takomil bosqichlarini mantiqan rivojlantirishga qaratilmaydi, balki ma'lum bir muammo, kayfiyat masalani tuyg'ular tadriji hisobidan rangin tasvirlarda ifoda va idrok etishga yo'naltiradi. H.Ahmedova she'rlarida adresat ham ko'pincha lirik qahramon va uning o'z ko'ngliga qaratilgan murojaati o'zligini namoyon etuvchi dil izhoriga o'xshaydi.

Jilmayib turibdi ko'nglim sen uchun,  
Garchi ko'zlarimga to'lgan g'ussalar.  
To'kilib ketmasaydi isming, qo'rqaman,  
Kiprik qoqqanidan nafis maysalar.  
Sabr nafasiga ekdim o'zimni,  
Yuragim suratin chizganda falak.

Manzara obrazlar yaratishda ijodkorning tabiiy borliq bilan munosabati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunonchi, shoira lahzalar zaminidagi falsafiy olamini namoyon qila olgan. Buning yorqin misoli betakror tasviriylikda mujassamdir. "Avvalo, shu narsani ta'kidlash joizki, – deb yozadi N.Rahimjonov, – Halima Ahmedova lirikasidagi badiiy-estetik tafakkur yangilanishi idrok va ifoda prinsiplarida namoyon bo'lmoqda. Xususan, shoiraning lirik qahramoni ko'nglidagi ilohiy nigoh bilan olam shevalariga, atrof-tevaragida kechayotgan voqelik jarayonlariga, odamlar fe'l-atvoriga nazar tashlaydi, estetik baholaydi, falsafiy mazmunning turfa holat va ko'rinishlarda jilvalanishi asosi shundan. Ya'ni ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni ko'rish, anglash, mohiyatini tushuntirish ustuvor. Bu borada haqiqat tuyg'usi ilohiy nigohning tajallisi sifatida zohir topadi"<sup>58</sup>.

<sup>57</sup> Халима Аҳмедова. Яшил. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б.42.

<sup>58</sup> Раҳимжонов Н. Бадий кашфиётлар тонги. Халима Аҳмедова. Яшил. Сўз боши. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б.3.

N.Rahimjonov ta'kidlab o'tgan ana shu sifat dunyoni o'zgacha nigoh bilan anglashi bois an'anaviy lirikadan ko'ra bu lirikada tushkun kayfiyatga, uning rang-barang tasvirlariga keng o'rin beriladi.

Shoira lirikasida ranglar, ayniqsa, yashil rang har bir she'rda yangi-yangi ma'nolarni anglatishiga ko'ra o'ziga xos poetik manzara yaratadi. (*Yam-yashil daryo, yashil nigoh, ishqday yashil, yalpizlar xayoli yam-yashil, yam-yashil nafas, nafas tafti, xayol kengliklari yashil, qachonlardir men ham yam-yashil edim, Daryoga talpingan jilg'aday yashil, Yashil kundan qolgan gardman ehtimol, Haqiqatning rangi - yashil, Va yana kimdir aytgan edi: avval va oxirni to'ldirar yashil, Yashil sog'inch bilan tirikman bu chog', Havvoning yam-yashil tomirlarida, Borliq va yo'qlikning yashil ovozi va h.k.*)

Qachonlardir men ham yam-yashil edim,  
Daryoga talpingan jilg'aday yashil,  
Yelkamga bosh qo'yib uxlardi quyosh,  
Uyg'onganda derdi: salom, maysa, dil!...

Umuman olganda, H.Ahmedova she'rlarini muayyan ruhiy holatning rangin manzaralari deyish mumkin. Undagi obrazning badiiy qiyofa, salmoqdorlik, originallik, emotsionallik kasb etishida *xayol, orzu, istak, armon, sog'inch, tasavvur* kabi bir qator tushunchalar muhim rol o'ynaydi. Unda deyarli ko'tarinki ritorik pafosni ko'rmaymiz. Shoira poetikasining umumiy pafosini o'ychan va mahzun kayfiyat tashkil etadi.

“*Zebo Mirzo she'riyatida badiiy kechinma tabiati*” deb nomlangan to'rtinchi faslda Zebo Mirzo badiiy olami haqida ma'lumot berilgan. Yer yuzida hayot paydo bo'libdiki, tundan so'ng tong otishi, kunduz qorong'u kechaga ulanishi bilan abadiyat takrorlanaveradi. Tabiatda hech bir narsa sof holda uchramaydi – tun bag'ridan yorug'lik, yorug'lik og'ushidan tunning qoramtir soyalari sizib chiqqanidek. Yorug'lik tun bilan qiyoslangandagina o'zining ro'shnolik mohiyatini to'laroq yuzaga chiqaraveradi. Ehtimol, tun, qorong'ulik bo'lmaganda kun, yorug'lik bu qadar qiymatga ega bo'lmasdi. Tabiatdagi bunday ziddiyatli holatlarini uyg'unlashtirib ketish, davom ettirish mumkin: ranglar, ta'mlar, sifatlararo shunday qarama-qarshilik va bir paytning o'zida yagona birlik chindan ham kishini falsafiy o'y-xayollarga soladigan tushunchalardir. Iste'dodli shoira Zebo Mirzoning “Ro'yoga iltijo” she'ri shunday satrlar bilan boshlanadi:

Ming yilkim, mening bir yorug' kunim yo'q,  
Ming yilkim, oy – xanjar, yulduzlar – xanjar.  
Ming yilkim, tilimga bosadilar cho'g',  
Kun va tun atalgan ikkita ajdar!...

O'zga shoirlar bilan qiyoslanganda, Zebo Mirzo she'riyatida doimiy takrorlanuvchi o'ziga xos bir qonuniyat ko'zga tashlanadi: *azal va abad, baqo va fano, kun va tun, o't va suv, banda va Yaratgan* kabi bir-birini taqozo etuvchi ikkiliklar va ular o'rtasidagi munosabatlar inson qalbining eng nozik, eng inja, eng intim his-tuyg'ulari tasvirini yuzaga chiqarishda muhim rol o'ynaydi, she'rda ilgari surilayotgan poetik g'oyaning parvozi va ko'lamdorligini ta'minlaydi, ruhiyatda

kechayotgan qarama-qarshiliklarni ro'yobga chiqaradi. Mana shu tuyg'ular metaforik tafakkur hosil qiladi, misralar orqali yanada poetiklashadi.

Ming yil ato etdi ming yillik bir ishq,  
Men uning qoshida turibman hayron.  
Yer, menga yorongul ismini bergil,  
Bir gulning umrini ber menga, osmon!  
Axir, nima qilay qadamlarim zil,  
Qutulmoq istayman bu tilsim toshdan.  
Faqat kel, faqat kel, kim bo'lsang ham kel,  
Hali oshganim yo'q o'n sakkiz yoshdan! <sup>59</sup>

O'n sakkiz yosh – sevgi va balog'at yoshi, umid va ikkilanishlar, ishonch va ishonchsizliklar gullagan davr. Shukur Xolmirzayevning “*O'n sakkizga kirmagan kim bor?*” qissasi balog'at yoshiga yetgan yigitning ko'ngil kechinmalari to'g'risidagi asar. Qo'chqor Norqobilning go'yoki, shu qissaga javoban yozgan asari “*O'n sakkizga kirmagan men bor*” – afg'on urushida ma'nan va jisman ezilgan o'zbek yigitining ong oqimi uslubida bitilgan dil iqrorlari. Zebo Mirzo she'ridagi “*Hali oshganim yo'q o'n sakkiz yoshdan*” misrasi va shu misra atrofida qurilgan poetik kechinma tasviri balog'at yoshidagi qizning ruhiy holat, ko'ngil kechinmalarining ayollarga xos nafosatli va nazokatli ifodasidir.

Zebo Mirzo lirikasida ayollar adabiyotiga xos xususiyatlar mujassamlashganligini alohida ta'kidlash joiz. Uning lirik qahramoni *go'zal mahbuba, sevimli yor, mehribon ona, xullas, latofatli ayol* obrazi qiyofasida gavdalanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Ayollar she'riyatida janrlar va shakllar rang-barangligi**” deb nomlangan. Bobning birinchi fasli “*XX asr adabiyotshunosligida janrlarga bo'lgan munosabat*” deb ataladi. O'zbek she'rshunosligida lirik asarlarning janrini aniqlash, ajratib ko'rsatish, monografiya va darsliklarda, alohida-alohida tahlil qilish zarurati o'tgan asrning saksoninchi yillarida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgan edi.

Professor Nuriddin Shukurov “Adabiyotshunoslikka kirish” darsligida bu borada quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: “Lirikaning xilma-xil janrlari va turli-tuman poetik formalari mavjud bo'lib, ular badiiy adabiyotning estetik boyligini, rang-barangligini ko'paytiruvchi muhim adabiy hodisa hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda lirik poeziyadagi janrlar va formalarni ifodalash uchun qo'shiq, sochma she'r, ashula, yoyiq sujetli asar, poemaga yaqin asarlar, nasriy she'r, erkin she'r, sochma she'r, publitsistik she'r kabi juda ko'p atamalar qo'llanilmoqda. O'zbek poeziyasida lirikaning quyidagi xillarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: 1. Publitsistik lirika. 2. Intim lirika. 3. Simvolik – ramziy lirika. 4. Hajviy lirika”<sup>60</sup>.

Rus adabiyotshunosi L.V.Chernesning “Adabiy janrlar” monografiyasida badiiy asar janrini aniqlashda mazmunning roli yetakchi ekanligi ta'kidalanadi va bu fikr atoqli ijodkorlar va olimlarining fikrlari bilan asoslanadi. L.V.Chernes yozadi: “Janrlarning tarkib topishida ularning mazmuni xususiyatlari yetakchi asos

<sup>59</sup> Zebo Mirzo. Нур кукунлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – Б.43.

<sup>60</sup> Шукуров Н.ва бошқалар. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б.212.

ekanligini e'tirof etish g'oyat muhimdir. Xuddi ana shu metodologik asos turli janr sistemalarini o'zaro bog'lash imkonini beradi..."<sup>61</sup>

Ozod Sharafiddinov she'riyatimizdagi janriy rang-baranglikni katta ijodiy taraqqiyot samarasi deb qaraydi, *publitsistik lirika, satirik she'r, voqeaband she'r kabi* iboralarni she'rlarning tematik xususiyatlarini anglatuvchi so'zlar ma'nosida emas, janr xususiyatini ifodalovchi terminlar sifatida qo'llaydi. Bu jihatdan uning "Zamon-qalb-poeziya" asari muhim ahamiyatga ega: "Poeziyadagi xilma-xillik va rang-baranglik dastlab janrlarning boyib borishida ko'rinadi. Bugun bizda muhabbat haqidagi lirik she'rlar ham, publitsistik lirika ham, hayot haqidagi o'ylarni ifodalovchi falsafiy lirika ham, xalq ijodiga yaqin manerada yozilgan qo'shiqlar ham mavjud... Yomonlikni, yovuzlikni, qabihlikni qoralaydigan satirik she'rlar ham paydo bo'ldi"<sup>62</sup>.

"O'zbek poeziyasi va adabiyotshunosligida she'riy shaklda yozilgan har qanday she'r nomi bilan ataladi. Har bir lirika asari, dastavval, she'rdir, undan keyin ma'lum bir janrga (g'azal, ruboiy, doston, poema, qo'shiq, va hokazolarga) mansub asardir"<sup>63</sup>, – deb yozadi I.Sulton.

Tojik adabiyotshunosi R.Musulmoniyon an'anaviy janrlarga muvofiq kelmaydigan she'rlarni "ash'ori noma'lum janr" deb ataydi va ba'zi xalqlarda zamonaviy she'rni mavzu va mazmun e'tibori bilan she'riy shakllarga tasnif qilinishini e'tirof etadi<sup>64</sup>.

Adabiyotshunos H.Umurov lirikada janrlar masalasi to'g'risida I.Sulton, U.To'ychiyev, M.Ibrohimov, O.Nosirov, R.Orzibekovlarning nazariy-estetik qarashlari mavjudligini qayd etib, lirika janrlarini U.To'ychiyev tasnifiga tayangan holda bayon etadi<sup>65</sup>.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli "*Janrlar – ruhiy kayfiyatni ifodalash usuli sifatida*" deb ataladi. Bu faslda o'rganish obyektimiz bo'lgan shoirlar ijodida uchraydigan she'riy janrlar va shakllar haqida ma'lumotlar beriladi.

Adabiy tur va janrlar ijodkor mahoratini belgilovchi tushunchalardan biridir. Shu bois ham ular ijodida turli tuman janrlarga murojaat etilishini kuzatish mumkin. Jumladan, o'zbek ijodkor ayollari ham bu borada o'z mahoratlarini sinab ko'rishdi. Halima Xudoyberdiyeva *ballada, marsiya, qasida, bag'ishlov* janrlariga murojaat etadi. Jumladan, ballada janrida munosib qalam tebratib, turkum balladalar yaratgan. Halima Ahmedova esa *g'azal, qo'shiq, bag'ishlov, esse* kabi janrlarda o'z mahoratini sinagan, shu boisdan bu janrlar uning ijodida muhim ahamiyat kasb etadi. Zebo Mirzo esa *universal she'riyatda* o'z uslubini topa olganligi bois janrlarga nisbatan shakllar kuzatiladi. To'g'ri, Zebo Mirzoda ham *bag'ishlov, qo'shiq* kabi janrlar uchraydi. Biroq bu janrlarni uning mahoratini belgilovchi xususiyat sifatida targ'ib eta olmaymiz. Shu bois ham Zebo Mirzo ijodida universal she'r va shakl xususida so'z yuritish maqsadga muvofiqdir.

<sup>61</sup> Чернец Л.В. Литературные жанры. – Москва:изд.МГУ, 1982. – С.21.

<sup>62</sup> Шарафиддинов О. Замон - қалб - поэзия. –Тошкент, 1979. – Б.192.

<sup>63</sup> Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.266.

<sup>64</sup> Мусулмониён Р. Назария адабиёт. – Душанбе: Маориф, 1990. – Б.196.

<sup>65</sup> Умuroв Х. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.227.

Bag‘ishlov janri avtobiografik xususiyatga ega bo‘lib, unda o‘zi uchun yaqin bo‘lgan insonlar yodga olinadi hamda ularga munosabat bildiradi. Bag‘ishlovlarni debocha sifatida ham e’tirof etishgan. Uning asosiy xususiyati sarlavhadan so‘ng kimga bag‘ishlab yaratilganligi rang-barang planga ko‘tariladi. Yoki ijodkor o‘sha shaxsning ismini keltirmasdan, balki, “... ga” deya berishi ham mumkin. Ba‘zan, bag‘ishlovlar real hayotda mavjud bo‘lgan shaxslarga atalib bitiladi. Jumladan, Halima Xudoyberdiyevaning “*Otam xotirasiga*”, “*Oq olmalar pishganda*”, O‘ktam Turg‘unjonovga bag‘ishlangan “*Bolakay o‘ltiradi qayiqda*” misrasi bilan boshlanuvchi bag‘ishlovi, “*Ulug‘bekni kuzatib*”, “*Bag‘ishlov*”, “*Bolajon sen otam bo‘lgin*”, “*Hamqishloqlarim*”, “*Dugonaginam*” kabi she‘rlarini ta’kidlab o‘tish mumkin. Shoiraning “*Dugonaginam*” bag‘ishloviga e’tibor qaratamiz:

Kel, ey, quvlashgancha kelar so‘nggi dam,  
Universitet yillari qolmoqda ortda.  
O‘rniga qo‘yaylik dugonaginam,  
So‘nggi sho‘xliklarni bu erkin yurtga<sup>66</sup>.

Mazkur she‘r shoiraning dugonasi Mukambarga bag‘ishlangan. Talabalikning sururli damlarida ruhiyat parvozga shay holatda ekanligi xususida so‘z yuritilgan. Kursdosh dugona Mukambarni she‘rda erkalash ohangida *Mukash* deb ham atagan.

Halima Ahmedovaning bag‘ishlovi ustози Ibrohim G‘afurovga bag‘ishlangan. Shoiraning mazkur bag‘ishlovi turkum ko‘rinishida bo‘lib, 3 ta bag‘ishlovni o‘z ichiga oladi. Shoira bag‘ishlovining uchinchi qismida dialoglardan unumli foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin:

- Ustoz, nechun muncha o‘ychan ko‘rinasiz?  
- Ruhimdagi bog‘lar ilmin anglayapman,  
Yomg‘ir-shamol orasida adashmasdan –  
Daraxtlarning so‘zlarini tinglayapman.

Ibrohim G‘afurov hamda shoira obrazidagi bu dialogda ruhiy kayfiyat, inson dunyoqarashi, uni o‘yga toldiruvchi bu kechinmalar nozik ilg‘angan.

Zebo Mirzo ijodidagi “...ga” bag‘ishloviga e’tibor qaratsak, unda samimiy tuyg‘ularni qalbiga joylagan oshiq obrazi o‘z ifodasini topgan:

Sen hali hech kimsa ko‘rmagan bir tush,  
Jannat eshigidan tikilgan malak.  
Yulduzlar ko‘ksiga boshingni qo‘yib,  
Tunlari o‘zingga aytasan ertak...<sup>67</sup>

Zebo Mirzoning mazkur bag‘ishlovi kimga atalganligi noma‘lum. Faqatgina o‘z yurak dardini begona ko‘zdan yashiradi. Shuning uchun sarlavhada uch nuqtadan foydalanadi. Shoira bag‘ishlovidagi tasavvur tuyg‘usi samimiy kayfiyatlarga yo‘l ochadi. U o‘zini go‘yo ertaklardagi sayyohlardak his etadi. Mana shu ertak tasvirni beribgina qolmay, balki endigina gulg‘uncha ochilgan kabi malak tasvirini yaratadi.

---

<sup>66</sup> Худойбердиева Х. Сайланма. – Тошкент: Шарк, 2000. – Б.72.

<sup>67</sup> Зебо Мирзо. Нур кукунлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – Б.64.

Ayollar ijodkorligida yana bir muhim janr mavjud, bu uch ijodkorni birlashtiruvchi xalqaga aylana olgan. Bu janr marsiyadir. Yig‘i-yo‘qlov she‘rlar, qabriston lirikasi turkiy adabiyotda qadimdan mavjud bo‘lib, u asosan, barmoqning to‘rt misralik bandlanishlarida yozilgan. Shuningdek, ularda yo‘qotish, ayriliq alamlariga aqli bovar qilsa-da, qalban uni tan olmaslik tuyg‘usini va qayg‘usini ifodalash uchun ritorik murojaat, ritorik so‘roqlarga alohida e‘tibor qaratilgan. Halima Xudoyberdiyeva marsiyalarida ham shularga amal qilinadi.

Bu qulagan tik terakmi,  
Bo‘ylaringmi, Muhammad?  
Chumoliday odam bosar,  
To‘ylaringmi Muhammad?

Halima Ahmedovaning “Dadamni eslab”, “Sog‘inch sohillari”, Zebo Mirzoning “Layloga” kabi marsiyalari zamonaviy she‘rning universal shakllarida yozilgan bo‘lsa-da, ichki pafos nuqtayi nazaridan o‘zining mumtoz namunalariga tortib turadi.

Shoiralarimiz ijodida keng tarqalgan zamonaviy she‘rning nisbatan yangi shakli she‘rlar turkumi hisoblanadi. Hozirgi she‘riyatda she‘rlar turkumiga kirgan asarlar raqamlarda ko‘rsatilmoqda. Biroq ba‘zi turkumga mansub she‘rlarga alohida-alohida sarlavhalar ham qo‘yilgan.

Halima Xudoyberdiyeva she‘rlar turkumining ajoyib namunalarini yaratdi. Uning “Bobo quyosh” kitobidan o‘rin olgan “*O‘q haqida olti she‘r*”, “Hurlik o‘ti” to‘plamidagi “*Unutganning kuysin ikki dunyosi*”, “Saylanma”sidagi “*Navro‘z xayollari*”, “Yo‘ldadirman” kitobidagi “*Dahshatli yoz*” turkumlari zamonaviy she‘riyatimizda turkum lirikaning mukammal namunalaridir.

“Dahshatli yoz” turkumi shoironing ko‘p she‘rlarida kuzatilganidek hayotiy asosga, biografik xarakterga ega. Turkum avvalida shoironing hasbi holiga nasriy izohi beriladi:

Ko‘z yosh bilan ivitdik nonni,  
Buyam dunning bir qavatida.  
Shivirladi: “Keldingmi jonim”,  
Qamoqning tosh karavotida.

Oq sochiga labimni bosdim,  
Bandi bo‘ldim shu tutqun qushga.  
Men o‘zimni unutayozdim,  
Kirt... kirt... Sichqon keltirar hushga.

Bu satrlarda lirik qahramon shoironing o‘zi. Kechinmalari ham o‘z boshidan o‘tganlari. Yaqin insonini tushkun ahvolidan iztirobda. Kechmishlari, tuyg‘ulari, iztirobli onlari go‘yo olamga sig‘magandek kitobxon tasavvurini yangilaydi.

Halima Ahmedovaning “Tashbeh” to‘plamidan o‘rin olgan “Dadamni eslab” turkumi to‘rtta she‘rdan iborat. Har bir she‘r mikrosujeti lirik qahramonning otasi bilan bog‘liq xotiralaridan tashkil topgan. Bu xotiralar yaqin kishisini yo‘qotgan

insonning o‘y-xayollari miskin, dilgir, alamzada. Shu turkumga mansub she‘r ham fikrimizni dalillaydi:

Hayot, qo‘llaringni ochib ko‘rsatgin,  
Nimani yashirib olding kaftingda?  
G‘amdan zada bo‘lgan mushfiq dilimni  
Hil-hil pishirdingmi yana taftingda?  
Dadam ketib qoldi xayrlashmasdan  
Yoki shoshildimi Haq visoliga?  
Men endi tunlarni yelkamga ortib  
Bora olamanmi kun xayoliga<sup>68</sup>.

Usbu parchaning o‘zi ham mazkur she‘rlarning o‘zga xarakterda emas, aynan ko‘ngil she‘riyatiga daxldorligini anglatadi.

Halima Xudoyberdiyeva, Halima Ahmedova va Zebo Mirzo she‘riyatini bir biridan ajratuvchi janrlari ham mavjud. Ya‘ni ijodkorlar o‘z ruhiy kayfiyatlariga mos holda janrlarni tanlaydi. Bu janr esa boshqa ijodkorlarda uchramaydi. Masalan, Halima Xudoyberdiyeva ijodida *xotira*, *kundalik*, *suhbat* janrlariga asoslangan she‘rlar yetakchilik qiladi. Uning “Sevan qoshida” she‘ri *xotira* janri asosida yuzaga kelgan bo‘lsa, “Bir ayolning kundaligidan” she‘ri *kundalik* janri asosida yozilgan “Qizlar bilan suhbat” she‘ri esa *suhbat* janrining ajoyib na‘munasidir. Halima Ahmedova ijodida esa esse janri mavjud. Zebo Mirzo ijodida ko‘p janrlarga murojaat etmaganligi bois ham biz aniq to‘xtamni bera olmadik.

Xullas, yuqorida tahlilga tortilgan she‘riy janrlar va shakllar bilan birga shoiralарimiz ijodida *ballada*, *sakkizlik*, *g‘azal*, *universal she‘r*, *ijtimoiy publitsistik lirika namunalari*, *hasbi hol*, *muxammas she‘r shakllari* ayollar she‘riyatining rang-barang she‘riy shakllar va janrlardan tarkib topganligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**Lirikada badiiy nutq va individual uslub**” deb nomlanib, ikki faslni o‘z ichiga oladi. Bobning birinchi fasli “*Ayollar she‘riyatida badiiy nutq va uning xususiyatlari*” deb nomlanadi. Bu faslda badiiy asar tili, she‘riy nutq shaklining asosiy adabiy kategoriya ekanligi o‘rganiladi. Tadqiq etilayotgan bu mavzu keng doiradagi tushuncha bo‘lib, uni alohida yaxlit bir holatga keltirish biroz murakkablik kasb etadi. Yuqorida nomlari zikr etilgan shoiralarning ayrim she‘rlarida mohiyat masalasini ko‘rib chiqamiz.

Turli ijodkorlar asarlarining til xususiyatlari nihoyatda xilma-xil va poetik tasvirlardan iborat. Ba‘zilari ixcham, qisqa jumalarda (telegraf uslubi) yozadilar, boshqalari murakkab sintaksisdan foydalanadilar, shu taxlit adabiy til normalariga yaqinlashadilar, matnda takrorlashlar yoki aksincha, ma‘lum so‘z, jumlaning tushirilishidan she‘riy san‘atlar hosil bo‘ladi. Badiiy adabiyot uchun maxsus til mavjud emas. Yozuvchilar odamlar real hayotda foydalanadigan muloqot tili bilan ishlaydi. Mualliflar til vositalarini tanlashda maksimal ifodalilik va obrazlilikka intilish va ularning vazifalari bilan bog‘liq muammolarga duch kelishadi. Nazmning nasrdan farqi shundaki, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, nazm muayyan

<sup>68</sup> Ахмедова Х. Ташбех. – Тошкент: Akademiashr, 2017. – Б.13.

vazn asosida yozilgan, tartibga solingan musiqiy (ohangdor) nutqdir. Ko‘pincha lirik va lirik-epik asarlarda his-hayajon, kechinma birinchi o‘rinda turadi. Ana shu his-hayajon qandaydir ohangdor, emotsional nutqqa ehtiyoj hosil qiladi. Emotsional she‘riy nutq hosil qilishning o‘ziga xos vositalari bor. Bulardan eng muhimi ritmdir. Ritmik jihatdan yaxshi yozilgan she‘r inson qalbini maftun qiladi. Shuning uchun ham Aristotel ritmli nutqni “ziynatli nutq” deb atagan.

Har bir she‘riy sistemada ritm tilning fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisiga, asosiy lug‘at fondi va lug‘at sostavining ichki rivojlanish qonunlariga tayanadi. Shunga ko‘ra, she‘riyatda ritm yaratuvchi asosiy elementlar bor. Ular *bo‘g‘in, turoq, ritmik pauza, vazndir.*

Bo‘g‘inning ritmni yuzaga keltirishdagi vazifasi sodda va ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgani bois she‘riy misralardagi turoqlanish hodisasiga e‘tibor qaratamiz. Bizning tadqiqot mavzuyimiz uchun tanlangan asarlarning aksariyati barmoq vazniga mansub bo‘lgani uchun bo‘g‘inning misradagi vazifasini mufassal o‘rganishni talab qiladi.

Zulfiya ijodida turoqlanish tartibining rang-barang ko‘rinishlarini uchratish mumkin.

6	5
Mana bir umrni / yashadim sensiz, //	
6	5
Qaytmas shodliklarning / qaytishin kutib. //	
6	5
Tobuting boshida / cho‘kkanimda tiz, //	
6	5
Farzandlar ko‘tardi / qo‘limdan tutib. //	

Bunda har bir misrada ikkitadan turoq bo‘lib, turoqlanish tartibi 6+5 shaklidir. Ushbu tartib she‘rning boshidan oxirigacha bir xil ritmni va shu orqali ohangdorlikni yuzaga keltirishga maksimal darajada xizmat qiladi.

Halima Ahmedovaning ijodida ham turlicha turoqlanish tartibini ko‘rishimiz mumkin.

6	5
Saning ishqing bilan / bo‘ldim rivoyat. //	
6	5
Boshimga bu ko‘ngil / keltirdi ofat. //	
6	5
Ishqing mayi birla / bir jom tutibsana, //	
6	5
Manim maxmurligim / senga malomat.	

Shoiraning ko‘pgina she‘rlarida birinchi misradagi turoqlanishning qisqaligi, keyingi uch misrada esa undan ko‘ra cho‘ziqroq va bir xilda takrorlanishi ko‘zga tashlanadi.

Bobning ikkinchi fasli “*Shoiralar ijodida poetik uslub rang-barangligi*” deb nomlanadi. Bu faslda uslub va uning xususiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. Badiiy asar uslubi ham shakl, ham mazmunga aloqadordir. Shaklga shuning uchun

aloqadorki, ijodkor asar sujetini, voqea-hodisalarni, qahramonlarning faoliyati, qilmishlarini, ularning ichki kechinmalarini, ruhiy holatlarini til yordamida ifodalaydi. “Shoirlar o‘z ijodlaridagi mushtarakliklar bilan emas, balki birlaridan farq qilib turuvchi xususiyatlari bilan qiziqarlidir”<sup>69</sup>.

Zulfiya poetik uslubini belgilovchi bosh alomat – Ona va Ayollik sha’nini ardoqlagan lirik qahramonning sodda va samimiy dil izhorini tashkil etadi. Bu dil izhorlarining tili ko‘pincha adabiy til qoidalariga qat’iy bo‘ysunadi. Shu bois bu lirikada arxaizmlar, istorizmlar, shevaga oid so‘zlar, vulgarizm, varvarizmlar, shuningdek, neologizm va professionalizmga oid so‘zlar, atamalar kamdan kam uchraydi. Masalan, “Sog‘inib” she’rini tahlili orqali bu holatga ishonch hosil qilish mumkin:

Shu kunlarda bahorga zorman,  
Navjuvonlik o‘ti tanda yo‘q.  
Kuz singari za‘far ruxsorman,  
Mevalar ham shoxlardan uzuq<sup>70</sup>.

Ko‘rinib turibdiki, she’rda murakkab konstruksiyali jumla, gap qurilishini uchratmaymiz. Noodatiy, kitobxonga notanish bo‘lgan maxsus leksik qatlam ham ko‘zga tashlanmaydi. She’rning ikkinchi satrida birgina tojikcha so‘z uchraydi, “*navjuvonlik*”, bu *navqironlik*, *yoshlik* ma’nolarini anglatadi. She’rda asl kelib chiqishi forsiy, arabiy so‘zlar uchraydi, lekin bu so‘zlar o‘zbek tiliga singib, o‘zlashib ketganki, barcha toifadagi kitobxonlarga qiyinchilik tug‘dirmaydi. Zulfiya poetik uslubi, obrazli qilib aytganda, sokin oqayotgan ulkan daryoga o‘xshaydi.

Halima Xudoyberdiyeva uslubi Zulfiyaning ifoda manerasidan jiddiy farq qiladi. Bu farq, eng avvalo, shoira nutqida mintaqaviy, mahalliy til elementlarini regional xarakterga, professionalizmga xos narsa va tushunchalarni faol qo‘llashda namoyon bo‘ladi. Zulfiya uslubini sokin dedik, H.Xudoyberdiyeva she’riyatida bu sokinlikni ko‘rmaymiz. Zulfiya ko‘ngil hasratini so‘zlar tubiga ko‘msa, H.Xudoyberdiyeva bu dardlarini o‘tmish va bugun, erk va ozodlik tuyg‘ulari bilan yorqin tasvirlab yaratadi.

H.Xudoyberdiyeva sokin kuylashga majbur bo‘lgan ayol, ona dardlarini zamonaga muvofiqlashtirdi, ilmiyroq qilib aytganda, modernizatsiya qildi desak to‘g‘riroq bo‘lar.

Sen so‘rama, men ham aytmayin,  
Kuragimning singanini qars.  
Shovqin solma, men uyg‘otmayin,  
Yuragimda yotar bir yo‘lbars.

Mazkur she’rning muallifi kimligini bildirmasdan o‘qitsangiz hech bir she’rxon buni ayol kishi bitgan deb o‘ylamaydi. Ya’ni undagi “*Kuragimning singanini qars*”, “*Ich-ichida yo‘lbars o‘kirib*” kabi iboralar, ifodalar ayollar she’riyatiga unchalik ham xos va mos emas. Xullas, H.Xudoyberdiyeva poetik

<sup>69</sup> Блок А. О литературе, Изд-во, Москва: Федерация. –1931. – С.88.

<sup>70</sup> Зулфия. Сайланма. – Тошкент: Shaq, 2015. – Б.78.

uslubiga xos xususiyatlardan yana biri – u o‘zigacha bo‘lgan ayollar she‘riyatida ko‘zga tashlanib turgan kitobiylikdan lirikani real hayotga yaqinlashtirdi. Bu reallik shafqatsiz, dag‘aldek tuyulsa-da, hayotiy edi, yuzaki g‘oyalar emas, hayot haqiqati, mardlik va kurashchanlik hayqirig‘i edi.

H.Ahmedova uslubining muhim qirrasini uning monologik nutqida forsiy, arabiy til elementlarining faol qo‘llanishida ham ko‘zga tashlanadi. Bu holat ijodkorning sharq adabiyoti an‘analari izidan borayotganligini tasdiqlaydi. Masalan, “Saning ishqing bilan bo‘ldim rivoyat” deb boshlanuvchi to‘rt bandlik she‘rida mumtoz she‘r nafasini beradigan “*saning*”, “*maxmurligim*”, “*sohirmidursan*”, “*laylisaro*”, “*mani*”, “*g‘orat*”, “*basorat*”, “*haqig‘a*” kabi o‘nlab so‘zlar uchraydi. Ba‘zan talaffuzni o‘zgarishi bilan bog‘liq “*mani*”, “*sani*” kabi shevaga xos so‘zlar ham tez-tez uchrab turadi.

Quyuc metaforik fikrlash, tashbehlarini ketma-ket va tig‘iz joylashtirish ham shoira uslubining bir muhim qirrasini tashkil etadi. Ayrim bandlar, hattoki butun boshli she‘rlarda ham shunday kompozitsion tuzilishni ko‘rishimiz mumkin. “Ey, mening ko‘nglimni...”, – deb boshlanuvchi she‘r hajman kattaroqligi bois, she‘rdan parcha keltirib o‘tamiz:

Ey, mening ko‘nglimni  
Olov sahraning  
Laylivash tushiga badarg‘a etgan.  
Ey, mening jonimda yashab turib ham,  
G‘anim sari ketgan,  
G‘am sari ketgan.  
Ming yillik maydayin –  
Dilim qonini  
Ey, tamshanib totgan,  
Ichikib totgan<sup>71</sup>.

Mazkur she‘rda badiiy-tasviriy vositalarning uzluksiz kelishi, tig‘iz joylashtirilishi unga o‘ziga xos joziba bag‘ishlash barobarida shoira ijodiy-uslubiy izlanishlari ancha murakkab jarayonni bosib o‘tganligini ham ko‘rsatadi.

H.Ahmedova uslubidan farqli ravishda Zebo Mirzoning poetik uslubi boshqacharoq xarakterda. Mana uning xarakterli she‘rlaridan bir misol:

Mayli ketgil...  
Nomozshomgullar  
Oy nurida yig‘lagan kabi  
Nigohingdan bitta nur tilab,  
Pichirlaydi ilinjim labi.  
Qaramaysan,  
izingni yuvar,  
Ko‘zlarimdan oqqan sog‘inch-may,  
Mayli, ketgil...

---

<sup>71</sup> Ахмедова Х. Яшил. –Тошкент: O‘zbekiston, 2016. – Б.115.

Shu vido haqqi,  
Qalbingni ber, so‘nggi bor o‘pay...

Ko‘rinib turibdiki, Zebo Mirzo uslubiga xos muhim belgilar ana shu she‘rda ham mujassam: birinchidan, ifodadagi xalqonalik, ikkinchidan, tuyg‘u kechinmaning asta-sekinlik bilan tadrijiy takomilga yetishi, uchinchidan, yuqoridagi ikki asosning peyzaj detallari, manzaralari bilan quvvatlantirilib borishidir.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek shoirlarining mavzuga munosabatlari, tasvir prinsiplari, masalaning mohiyatini ochishga qanday nuqtayi nazardan qarashlari, individual maneralari, bir so‘z bilan aytganda, poetik uslublari jihatidan xilma-xil va rang-baranglik kasb etadi. Ularning she‘ridagi rangin noan‘naviy ifoda tarzi, so‘z qo‘llash nutqiy mahorati davr she‘riyatidagi ayollar adabiyotining o‘rnini belgilab beradi.

## XULOSA

Ayol ijodkorligi va ular ijodining adabiyotdagi o‘rni muhimdir. Shu bois ham bugungi kunda ayollar ijodkorligi alohida tadqiqot mavzusiga aylanib ulgurgan. Ularning ruhiy kechinmalari va o‘z qarashlarini ma‘lum bir kategoriyalar asosida berilishi esa bu mavzuning davomiyligini belgilaydi. Mazkur muammoni o‘zbek she‘riyatida shoirlar ijodi misolida o‘rganish esa quyidagi xulosalarni keltirib chiqardi:

1. Xalq og‘zaki ijodida ayol ijodkorligi quyidagi janrlarda o‘z ifodasini topgan: a) alla; b) qo‘shiq; d) to‘rtliklar; e) ertak; f) topishmoq; g) maqol. Alla janri ayol qalbi dialektikasini ochuvchi kalit vazifasini o‘taydi. Bu janr ona va farzand o‘rtasidagi munosabatgina emas, balki ayolning orzu-umidlarining ifodasi ekanligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Alla sabab ayol qalbining iliq harorati hamda kelajakka bo‘lgan ishonch kuzatiladi. Qo‘shiq janrida ayollarga xos bo‘lgan tuyg‘ular uning atrof-olamini o‘rab olgan detallar orqali beriladi. Bu esa ayolning qo‘rg‘on deb atalmish oiladagi o‘rni va undagi munosabatni ham ifodalashga imkon beradi. To‘rtliklarda ayollarning aql-zakovati namoyon bo‘lgan. U hozirjavoblikning bir ko‘rinishi ya‘ni tuyg‘ularning ifodasi sifatida bo‘y ko‘rsatgan. Ertak janrida ayol ijodkorligi bilan bir qatorda ular tilidan yozib olingan nutq ko‘rinishlari o‘ziga xos tarzda berilgan. Topishmoq va maqollarda ayol ijodkorligi farzandning odob-axloqi bilan bog‘liq holatda yuzaga chiqqan.

